O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

Zafar Pardayev

Pragmatik lingvistika

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

Samarqand - 2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI

Zafar Pardayev

PRAGMATIK LINGVISTIKA

(O'quv-uslubiy qo'llanma)

Samarqand - 2013

Pardayev Zafar. Pragmatik lingvistika. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand. 2013. 104 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma Lingvistika (o'zbek tili) magistratura yo'nalishi magistrantlariga mo'ljallangan bo'lib, unda tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo'lgan «Pragmatik lingvistika» fanining mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Mas'ul muharrir: **Yo'ldoshev B.** filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: **Karimov S.** filologiya fanlari doktori, professor

Begaliyev N. filologiya fanlari nomzodi, dotsent

© Samarqand davlat universiteti, 2013.

KIRISH

Respublikamizning o‘z mustaqilligini qo’lga kiritishi tilimiz rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi va tilimizni har tomonlama rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday fikrlarni bildirgan edi: «Biz ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur.Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy Kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o’ta muhim sohalarda ona tilimizning qo’llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug’atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so’z bilan aytganda ,o’zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o’zlikni, Vatan tuyg’usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir».[1]

Tilshunoslikda XX asr oxirlaridan boshlab antroposentrik paradigma to‘g‘risidagi qarashlarning yetakchilik qilib kelishi bir qator fanlararo sohalar, jumladan lingvopragmatikaning paydo bo‘lishi uchun zamin hozirladi.

Tilshunoslikning bugungi kundagi zamonaviy yo‘nalishlarida bu ilmiy soha alohida qiziqish uyg‘otadi. Lingvopragmatika tilning real sharoitda mavjudligi va vazifa bajarishi bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida bahs yuritadi, boshqacha aytganda, pragmatika kontekst tarkibidagi ma’noni tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmasining maqsadi filologiya yo‘nalishi bo‘yicha magistr va talabalarning tilshunoslikdagi yangi soha bo‘lgan pragmatik linvistika haqidagi bilimlari doirasini kengaytirish, ularda zamonaviy lingvistik fan

[1] Каримов И.А.Юксак маънавият енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008. 87-bet.

yo'nalishida til birliklarini keng miqyosda tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash hisoblanadi.

Qo'llanmada lingvistik pragmatikaning nazariy asoslari nutqiy faoliyat bilan o'zaro chambarchas aloqadorligi, o'zbek tili lingvistik semantikasi, diskurs va u bilan bog'liq masalalar, baho kategoriyasi va uning namoyon bo'lishi to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi va uning aksiologik yo'nalishlariga, lisoniy birliklar izohiga antroposentrik va egosentrik ilmiy paradigma nuqtai nazaridan yondashildi.

Pragmatik tahlil mazkur qo'llanmada muloqotchilarning nutqiy aloqasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi lisoniy birliklar, xususan, baholovchi so'zlar misolida amalga oshirildi va ko'rgazmali sxemalarda aks ettirildi. Talabalar va magistrantlarga o'rganish uchun semantik (aynan fikrni to'liq qamrab oluvchi lisoniy ma'no) va pragmatik qobiq (nutqiy aloqada fikr ifodalash sharoiti)ni aks ettiruvchi baholovchi so'zlar amal qilishining o'ziga xos tahlil usullari tavsiya qilindi.

Ushbu qo'llanmani yaratishda Sh.Safarovning «Pragmalingvistika» (Toshkent, 2008), G. N. Kenjebalinaning «Lingvopragmatika» (Pavlodar, 2012) va boshqa olimlarning pragmalingvistikaga doir tadqiqotlaridagi ilmiy-nazariy fikrlardan ijodiy foydalanildi.

Ushbu qo'llanma bu sohadagi dastlabki ishlardan bo'lgani bois unda ayrim bahsli o'rinlar, subyektiv qarashimiz bilan bog'liq munozarali tomonlar bo'lishi tabiiy. Qo'llanma to'g'risida bildirilgan fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Elektron manzil: zafar.1965@mail.ru
Ish manzili: 703000. Samarqand, Universitet xiyoboni, 15.
Samarqand davlat universiteti

PRAGMALINGVISTIKA FANI, UNING OBYEKTI VA PREDMETI

Reja:

1. Til va faoliyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi;
2. Lingvistik pragmatikaning tilshunoslikdagi boshqa sohalar bilan aloqasi;
3. Lingvistik pragmatikaning o'rganilish tarixi;
4. Lingvistik pragmatikaning tadqiqot obyekti va predmeti.

Tayanch so'z va iboralar: *pragmatika, pragmalingvistika, subyekt, so'zlovchi subyekt, tinglovchi subyekt, adresant, adresat, nutq vaziyati va sharoiti, pragmatik imkoniyat, pragmatik qobiliyat, pragmatik mazmun, pragmatik samara va samarasizlik.*

Jamiyatda ustuvor bo'lgan turli munosabatlar zamirida inson kommunikativ maqsadi yotadi. Bu maqsad esa til orqali amalga oshadi. Obrazli qilib aytganda, inson til vositasida dunyoni o'zgartiradi. Bu o'zgarish yakka shaxs yoki u mansub bo'lgan jamiyatning nutqiy faoliyati bilan bog'liq sohalarda, ya'ni rasmiy va norasmiy doiralarda belgilab qo'yilgan ayrim mezonlarning bekor qilinishi, yangilarining amalda bo'lishida, qisqasi, ijtimoiy voqelikning yangi tus olishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham til inson faoliyatining hamma sohalariga birday taalluqlidir.

Tilshunoslikning fan sifatida o'rganish obyekti va predmetini aniqlash antik davrlardan beri falsafiy va metodologik nazariy muammo sifatida tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Mazkur muammoning murakkabligi tilning mohiyati ko'pqirrali va rivojlanib boruvchi hodisa ekanligi bilan izohlanadi. Tilshunoslikning ko'p asrlik tarixida tadqiqotchilar tomonidan tilning ichki qurilishini har

tomonlama izchil izohlashga imkon beradigan nazariy mezonlar ishlab chiqilgan.

Ilmiy tadqiqot markazida til va madaniyat, til va psixologiya, til va tafakkur kabi periferik hududlarning joylashuvi tilshunoslik chegaralarini kengaytirib, uni ko'zga tashlanmaydigan qilib qo'ydi. Shuning uchun hozirgi davrda tilshunoslik sohasida antroposentrik yo'nalish rivojlanmoqda.

Tilshunoslikdagi antroposentrik nazariyada tilni o'rganishga inson va uning faoliyatining kiritilishi psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika kabi tilshunoslik bilan bog'liq sohalarning vujudga kelishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Til tufayli fikrlar shakllanish jarayoni ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochdi: «Inson allaqachon dastlabki falsafiy, mantiqiy va psixologik tahlilni amalga oshirdi va uning natijalari tilda aks etdi hamda mustahkamlandi».[2] So'z muloqotning asosiy birliklaridan biri sifatida nafaqat tushuncha ifodalaydi, balki xalq madaniyati, milliy-ma'naviy qadriyatlari, falsafasi va psixologiyasi bilan bog'liq tomonlarni ham anglatadi, ya'ni o'ziga xos semantik komponentlar hisobiga kengayib boradi.

Zamonaviy manbalar lingvopragmatikani nutqda lisoniy belgilarning amal qilishini «belgi – belgidan foydalanuvchi» munosabati yo'nalishida o'rganuvchi tilshunoslik sohasi deb belgilaydi.

Pragmatika tushunchasi ilk bor semiotikada paydo bo'lib, u turli belgilarning semiotik tizimdagi funksional xususiyatlarini ifodalovchi, ular haqidagi turli ma'lumotlarni saqlovchi va yetkazuvchi fan sifatida tushuniladi. Semiotika bilan bog'liq masalalarni tadqiq etgan Ch.Morris mazkur fan doirasida uch bo'limni ajratadi: belgilar o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi sintaktika (sintaksis), belgi va belgilangan o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semantika,

[2] Шатуновский И. Б. Семантика предложения и нереферентные слова. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. -С. 21.

belgi va uni qo'llovchi (interpritator yoki uni tuzuvchi va tushunuvchi) o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi pragmatika[3]. Olim tomonidan ilgari surilgan fikrlarning ilmiy asoslanishi, til pragmatikasi shakllanishi keyinchalik Dj.Ostin, Dj.Syorl, G.Grays, Z.Vendler va boshqa faylasuflar g'oyalari bilan barqarorlashdi.

Lingvopragmatikaning nazariy asoslari XX asrning 60 yillarida Oksford maktabi tilshunos-faylasuflari (B. Rassel, Dj. Ostin, X. Grays, Dj. Syorl)lar tomonidan ishlab chiqildi va ularning xizmatlari hamda 1969 yilda «Nutqiy aktlar.Til falsafasi ocherki» kitobining nashr etilishi bilan pragmatik nazariya yangi bosqichga ko'tarildi. O'tgan asrning 60-70 yillarida lingvistik pragmatikaning fan sifatida shakllanishi va amal qilishini tadqiq etishga imkoniyatlar yaratildi. Nutqiy muloqotni ifodalovchi birliklarni yozish, saqlash va tahlil qilishga ko'maklashuvchi texnik vositalar, magnitofon va video yozuvlari paydo bo'ldi. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, pragmatika insonning turli faoliyatida qo'llanuvchi lisoniy vositalarni o'rganadi. Pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan Ch.Pirs va Ch.Morrislar[4] pragmatikani lisoniy birliklardan ma'lum nutqiy vaziyatlarda belgilangan kommunikativ maqsadda foydalanuvchi va mazkur muloqot jarayonida qo'llanuvchi belgilar munosabatini o'rganuvchi fan sifatida izohlaydilar. Pragmatikani lingvistik nuqtai nazardan o'rganishda L.Vitgenshteynning xizmatlari salmoqli. Olim ma'noning tilda qanday ifodalanishini belgilab bergan edi. Bu shundan dalolat beradiki, har qanday fikr muayyan vaziyatni hisobga olgan holda faqat kontekstdagina namoyon bo'ladi. Masalan, ***Yomg'ir yog'ayapti*** gapi qanday kontekstda va qanday jarayonni bildirishiga ko'ra turli pragmatik ma'no ifodalashi mumkin: *Men hyech qayerga bormayman* (so'zlovchining

---

[3] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008.-С.286.

[4] **O'sha joyda.287-bet.**

biror joyga borishni inkor qilishi), *Soyabonni ol* (tinglovchini yomg'irdan saqlanishga undash, maslahat berish), *Yomon, noqulay ob-havo* (ma'lum bir ish-harakatni amalga oshirishga ob-havoning noqulayligini izohlash) va *so'roq ohangi* – (yomg'irning yog'ayotganligi haqidagi xabarni tasdiqlash).

Zamonaviy tilshunoslikka doir tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, kuzatuv markazida doimo inson, lisoniy shaxs turadi, til esa uning muhim tavsifi hisoblanadi. Til o'z navbatida faoliyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shu ma'noda tilga tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lgan pragmalingvistikaning asosida yotuvchi faoliyat sifatida qaraladi.

Pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, yunoncha «ish», «faoliyat» ma'nolarini bildiradi[5], shuningdek, uning lug'aviy ma'nosi amaliy ish mazmuni bilan aniqlashadi. Demak, fan sifatida pragmatikaning mundarijasini til belgilarining funksional jihatdan nutqning u yoki bu ko'rinishida qo'llanishi tashkil etadi. Uning mazmuni esa kommunikatsiya jarayonida fikr ifodalash va uni anglash, tushunish mezonlariga muvofiq tarzda namoyon bo'lishidir.

Sh.Safarov ta'kidlaydiki, lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi[6].

Nutqiy muloqot doimo o'zgarib turuvchi va rivojlanib boruvchi dinamik xususiyatga ega. Kommunikativ

---

[5] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008.-С.462.

[6] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 37-бет.

maqsadning qanday ekanligi, nutq kimga qaratilganligi va qanday sharoitda amalga oshayotganligi muloqot xarakterini belgilab beradi. Bunda so'zlovchi shaxsning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, bilimi, tajribasi muhimdir. Bular so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalash uchun til birliklarining nutqiy vaziyatga xos va maqbul bo'lgan ko'rinishlarini tanlash hamda o'z kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgan holda qo'llashiga imkoniyat yaratadi.

Muloqot vaziyatlari beqaror bo'lib, pragmatik struktura soddalikdan murakkablik tomon siljib, pragmatik qobiq ham shunga mos holda kengayib boradi. Shuning uchun lisoniy tahlilda pragmatik tamoyillarga suyanish ko'zlangan natijani beradi.

Pragmatika doirasiga so'zlovchi subyekt va nutq qaratilgan shaxs, ya'ni eshituvchi subyekt, xabar yuboruvchi – adresant va xabarni qabul qilib oluvchi – adresat, ularning kommunikatsiyada o'zaro bog'lanishi, munosabatlari, aloqa qilish, muloqot vaziyatlari bilan bog'liq masalalar yig'indisi ham kiritilgan. O'zaro muloqotda qo'llanuvchi munosabat ifodalovchi so'zlar nutq qaratilgan shaxsga ta'sir etishga ma'lum darajada funksional jihatdan xoslangan bo'ladi. Bunday lisoniy birliklarning murakkab tabiati muloqot nazariyasiga pragmatikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qarashni taqozo qiladi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo'nalish bilan bog'lanadi.

Shu tufayli mulohaza, fikr ifodalashning ochiq(eksplitsit) va yashirin(implitsit) ko'rinishlari (Dj. Ostin fikriga ko'ra «illokutiv kuchlar»), so'zlashuv taktikasi va so'zlashuv xarakteri, ifodaning pragmatik mazmuni (ko'chma ma'nolar, ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hakozo), adresatga ta'siri kabilar lingvistik pragmatikaning tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'lmoqda[7].

---

[7] Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.И. Ярцева. М.: Научное изд-во «Большая российская энциклопедия», 2002. -С. 448.

Shuni qayd etish lozimki, hozirga qadar pragmalingvistikaning mundarijasi, o'ziga xos terminologiyasi qat'iy belgilab olingan bo'lmasa-da, uning fan sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi inson omiliga bog'liq ekanligi fanda e'tirof etilmoqda.

Pragmatika keng qamrovli fan sifatida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalar, xususan, kommunikativ sintaksis, nutq va nutq faoliyati nazariyasi, tipologiyasi, kommunikatsiya va funksional uslublar nazariyasi, sotsiolingvistika nazariyasi, psixolingvistika nazariyasi, diskurs nazariyasi, ritorika va stilistika doiralarida ko'p asrlik tarixga ega bir qator muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti mezonlari nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, pragmatika inson nutqiy faoliyatiga aloqador sohalarni birlashtirib turuvchi va ular bilan bog'liq masalalardan bahs yurituvchi zamonaviy lingvistikaning mustaqil sohasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Buni quyidagi sxemada ko'rish mumkin:



Tilshunoslikda tilni pragmatik nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan turli yo'nalishdagi tadqiqotlarni bir umumiy maxrajga keltirsak, ular o'rtasida o'zaro o'xshash tomonlar mavjudligi ma'lum bo'ladi.Ular quyidagilar:

1) pragmalingvistika bo'yicha olib borilgan barcha tadqiqotlarda til, inson nutqiy faoliyati haqida fikr yuritilganda, faoliyat asosiy tushuncha sifatida e'tirof etiladi;

2) til kommunikatsiya jarayonida birgina aloqani ta'minlab qolmay, muloqotchilarning dinamik xarakterdagi o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi;

3) til birliklarining nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun uslubiy xoslanishi va qo'llanishi avvalo, nutqiy vaziyat va ijtimoiy-ruhiy holatlarni ifodalovchi kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bugun pragmalingvistika keng ma'noda tushuniladi. Bu haqda Yu.D.Apresyan pragmatika so'zlovchining voqelikka, xabarning tuzilishiga, adresatga munosabati, til birliklariga (leksema, affiks, grammema, sintaktik qurilma) mustahkam bog'liq ekanligini ta'kidlaydi[8].

Professor Sh.Safarov «pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi»[9] deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalarini belgilab beradi.

Demak, pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, **lingvistik pragmatikaninng maqsadi** «kontekstda tilni o'rganish» – ijtimoiy, situativ va boshqa shu kabilarda tilni kommunikatsiya vositasi sifatida tadqiq

---

[8] Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. –Москва, 1995. -С. 199-218.

[9] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 69-70-бетлар.

etishdir. Pragmatik nazariya va amaliyoti chegaralarining haligacha to'liq belgilanmaganligi lingvopragmatikaning gumanitar (xususan, lingvistik) doiralarga xos bo'lgan nutqiy aktlar nazariyasi, diskurs-tahlil, shuningdek, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, antropologiya va boshqalar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda semantika bilan til pragmatikasi o'rtasidagi chegarani belgilash ko'plab ilmiy munozaralarning asosiy mavzusi hisoblanadi.

Darhaqiqat, «Semantika masalalarini o'rganish kuchaygan bir paytda pragmatikaga e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki, semantikaning tekshirish ko'lami g'oyat kengayib ketgani tufayli, uni bir oz yengillashtirishga, ma'noning kontekst bilan bog'liq qismidan xalos qilishga to'g'ri keldi. Natijada pragmatika semantikadan ajralib chiqdi»[10].

Inson tafakkuri voqelikni tilda aks ettirib, subyektivlik kasb etadi va insonning idrok etish faoliyatining murakkab xarakterda ekanligini ko'rsatadi. Subyektivlik insonning real *dunyoni idrok etishiga, olam manzarasining qanday* ko'rinishda ifodalanishiga, tashqi olamning til tizimida aks etish jarayoniga ta'sir qiladi.

Lingvistik pragmatika muammolarini tadqiq etish nutqda til birliklarining funksiyalashuvi, shakllanish tabiatini va namoyon bo'lishini tushunishga imkon beradi. Pragmatika shug'ullanuvchi masalalarga nutq subyekti (so'zlovchi), adresat (tinglovchi), nutqiy muomalaning strategiya va taktikalari, shuningdek, nutqiy muloqot shakllari, aloqachilar o'rtasidagi munosabat, nutqning namoyon bo'lishi va performativ fikrlarga oid muammolar kiradi.

Umuman olganda, «Pragmatik lingvistika» fani tilshunoslikning quyidagi muammolarini o'rganish bilan shug'ullanadi:

---

[10] Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. –Тошкент, 2012. 245-бет.

- Nutqiy faoliyat va uning samarali amalga oshishini tadqiq etish.
- Nutq faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lish sharoiti, o'rinli, maqbul bo'lishi va ifoda samaradorligini o'rganish.
- Ifodaning eksplitsit va implitsit ma'nolarini o'rganish.
- Diskurs tushunchasining mohiyatini yoritib berish, uning asosiy masalalarini aniqlash.
- So'zlovchi shaxs va voqelik faktlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.
- So'zlovchi va ifodalanayotgan fikrlar mazmunini aks ettiruvchi kirishlar, baholovchi leksik va sintaktik birliklar pragmatik tabiatini ochib berish.
- Kommunikativ ifoda tuzilishining, ya'ni nutqiy aktning illokutiv maqsadi kommunikativ vaziyat tuzilishiga bog'liqligini aniqlash.
- Muloqotning lingvistik tuzilishini o'rganish.
- Muloqotning har xil ko'rinishlari va turlariga oid qoida, usullarni o'rganish, tamoyillarini shakllantirish va ishlab chiqish.
- Nutqiy aktlar, ularning turlari va ifoda usullari semantik-pragmatik tavsifi doirasida qurilmalarning vazifaviy tasnifini tuzish.
- Har xil nutqiy ifodalarning turli matnlarda namoyon bo'lishini o'rganish.

Xuddi shu muammolar «Pragmatik lingvistika» kursining maqsadi va vazifalarini belgilaydi.

Pragmatikaninng asosiy tushunchalaridan biri pragmemalar hisoblanadi.

PRAGMEMA PRAGMALINGVISTIKANING KICHIK BIRLIGI SIFATIDA

Birinchi guruh so'zlar	*Uy, ko'k, ko'rmoq*	Bu so'zlar so'zlovchining belgilangan hodisalarga hech qanday munosabatini belgilamaydi.
Ikkinchi guruh so'zlar	*Yaxshi, qo'rqinchli, kerakli*	Bu so'zlar baho ma'nosini ifodalasada, qaysi hodisaga taalluqli ekanligini k o'rsatmaydi.
Uchinchi guruh so'zlar	*Kelishuv, ulug'*	Bu so'zlar ma'lum predmetga qattiq bog'langan va baho ifodalaydi.

- *Uchinchi guruhga kiruvchi so'zlar* ***pragmemalar*** *hisoblanadi.* ***Ularning asosiy belgilari:***
  - ular kommunikativ jarayonda mustaqil hisoblanadi;
  - vaziyatning to'liq bahosi ular anglatgan lug'aviy ma'no yadrosiga kiradi;
  - ular o'zi anglatganidek, tugallangan muhokama sifatida qo'llanadi.

Pragmemalar – pragmatik yo'naltirilgan va inson fe'l-atvorini boshqarishga mo'ljallangan, tilning turli sathlariga oid birliklardir. Pragmemalar orasida o'ziga xos munosabatlar tizimi shakllangan bo'lib, ularni quyidagicha tasvirlash mumkin:

- **Qarama-qarshilik munosabatidagi kontrast ko'rinishidagi pragmemalar:** *talabchanlik – beparvolik, umumiylik – xususiylik, tinchliksevar – tajovuzkor.*
- **Antonim ko'rinishidagi baholovchi pragmemalar:** *orzu-xomxayol, tinchliksevar – tajovuzkor.*
- **Sinonim ko'rinishidagi baholovchi pragmemalar:** *talabchanlik – qattiqqo'llik, tinchliksevarlik – erkparvarlik.*
- **To'liq sinonimlik munosabatida bo'lgan pragmemalar:** *hamdo'stlik – ittifoq, musobaqa – raqobat, qarshilik ko'rsatish – qarama – qarshilik, adovat.*

PRAGMEMANING VAZIFALARI



Savollar va topshiriqdar

1.Tilshunoslik obyekti va predmetini belgilashning murakkabligi nima bilan bog'liq?

2.Tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmani tavsiflab bering. Bu lingvistik paradigma qanday tamoyillar asosiga qurilgan?

3.Tilni o'rganishga antroposentrik yondashuvning mohiyati nimadan iborat?

4.Inson hayotida nutqiy faoliyat qanday ahamiyatga ega?

5.Lingvopragmatika qanday shart-sharoitlarga ko'ra paydo bo'lgan?

6.Ch. Morrisning qarashicha, tilda semantika, pragmatika va sintaktika o'rtasida qanday munosabat mavjud?

7.Bu masala bilan shug'ullangan o'zbek, rus va boshqa chet el olimlaridan kimlarni bilasiz?

8.Sizningcha, qanday tushunchalar sizningcha, lingvo-pragmatikaning zaruriy atamalari hisoblanadi?

TIL TIZIMI VA NUTQIY FAOLIYAT

Reja:

1. Til va nutq.
2. Til va nutqning vazifalari.
3. Til va tafakkur.
4. Muloqot strukturasi.
5. Subyekt va aloqa obyekti.
6. Aloqa vositalari.
7. Aloqa funksiyalari.

Tayanch so'z va iboralar: *til, nutq, subyekt, adresant, adresat, ichki nutq, tashqi nutq, nutqiy aloqa, nutqiy ifoda, nutqiy kommunikatsiya, nutqiy strategiya, nutqiy taktika.*

Til va nutq

Keyingi vaqtlarda tilshunoslikda inson nutqining voqelanish usullari, unda til birliklarining ishtirokiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson nutqiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda «nutqiy aloqa», «nutqiy ifoda», «nutqiy kommunikatsiya», «nutqiy strategiya» kabi atamalarni qo'llashga e'tibor kuchayganligi seziladi. E'tibor qilinsa, bu atamalarning har biri tarkibida «nutqiy» so'zi qo'llaniladi. Buning sababi nimada? Vaholanki, biz shu vaqtga qadar til muloqotning asosiy vositasi ekanligi haqida gapiramiz. Bu savolga «til» va «nutq» tushunchalari orasidagi farqlarni aniqlaganimizdan so'nggina javob topamiz. Soddagina qilib aytish mumkinki, til bu belgilar tizimidir. Belgilarning o'zaro munosabatiga ko'ra pog'onali tartiblanishi natijasida til strukturasi shakllanadi. Bu fikr har qanday til tizimi haqida gapirishda qo'l keladi Tovush, morfema, o'zak, so'z, so'z birikmasi, gap kabi birliklar har qanday tilda mavjud va ular umumiy lisoniy birliklar hisoblanadi. Har qaysi birlik tilning ma'lum bir sathiga tegishli bo'ladi. Bu sathlar o'zaro bog'liq

va **tovush-morfologik-sintaktik-semantik** ko'rinishidagi qat'iy tartibga ega. Til sathlarining har birida shu sath doirasida qaraluvchi birliklarni qo'llash me'yori, qoidalari mavjud.

Tilimizda «nutq» atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, u inson kommunikativ faoliyatining bir ko'rinishiga – tilning kishilarning o'zaro aloqa qilishida qo'llanishiga nisbatan ishlatiladi. Bu ma'noda nutq – og'zaki yoki yozma shaklda ifodalanuvchi aniq faoliyatdir. Ikkinchidan, faoliyat natijasi –matn (maqola, xabar va shu kabilar) nutq deyiladi. Shunga ko'ra «til» so'zida «sistema, struktura» ma'nolari, «nutq» so'zida – «faoliyat» ma'nosi mujassam. Shuning uchun «kommunikatsiya» tushunchasini belgilashda «nutqiy» so'zini qo'llash ma'qul bo'ladi.

Tilshunos A.Nurmonov o'z kuzatishlarida rus tilshunosi V.Ya.Zveginsevning til va nutq o'rtasidagi quyidagi farqli belgilarni aniqlaganligini qayd etadi:

1.Nutq individual, til umumiy hodisadir. Umumxalq tili o'z taraqqiyoti davomida doimo ma'lum o'zgarishlarga uchraydi.

2.Nutq psixik hodisa, til ijtimoiydir.

3.Nutq harakatchan, rivojlanuvchi, til esa barqarorlikka, turg'unlikka intiladi.

4.Nutq tarixiy, til diaxronik xususiyatga ega.

5.Nutqiy elementlar o'rtasida sababiy tobelik, til elementlari o'rtasida funksional tobelik mavjud.

6.Til lingvistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. U lingvistik barqaror, nutq esa lingvistik barqaror bo'lmagan, o'zgaruvchan xarakterga ega.

7.Nutq o'z funksiyasini real birliklar vositasida bajaradi. Mohiyat va shakl o'rtasida farqlanish mavjud. Shu asosda til ham mavhum tizim sifatida amal qiladi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, nutq tushunchasini ifodalashda «lisoniy kommunikatsiya» ifodasi ham sinonim

sifatida qo'llaniladi. Umuman olganda, hozirgacha «til» va «nutq» hodisalarining mohiyati to'la ochib berilmaganligi, ular o'rtasidagi chegara aniq belgilab olinmaganligi bois, ularni farqlamay qo'llash davom etib kelmoqda.

Til va nutqning vazifalari

Til va nutq orasidagi chegarani belgilash ancha qiyin. Gap shundaki, har qanday og'zaki yoki yozma ko'rinishdagi lisoniy ifoda – bu nutq. Bundan keyin biz shu asosda fikr yuritamiz.

Tilning asosiy vazifalari (bu nutqiy kommunikatsiyani belgilashga tegishli):

1) xabar – ma'lumot yetkazish, insonlarning maqsad va mo'ljallari, fikrlari haqida ma'lumot.

2) tashviqot – istak, chaqiriq, iltimos.

3) his-tuygularni bevosita ifodalash, emotsiyalar.

Bundan tashqari, metalisoniy (predmetni tavsiflash uchun tildan foydalanish) va fatik (muloqot ishtirokchilari o'rtasida aloqaning o'rnatilishi) vazifaning mavjudligi. Masalan, tadqiqotlarda, ilmiy tushunchalarni keng izohlovchi lug'atlarda til metalisoniy vazifada kuzatish obyektini tavsiflash, ularni belgilash uchun qo'llaniladi. Kundalik maishiy muloqotlarda «Ishlar qanday?», «Nima yangiliklar bor?» kabi jumlalar so'rashish, shuningdek, aloqa o'rnatish uchun muhimdir.

Til insonning nutqiy faoliyatida turli lisoniy birliklarning qo'llanishida namoyon bo'ladi. Masalan, gazeta maqolasida tilning xabar funksiyasi yetakchilik qiladi, shuningdek, unda tashviqot va emotiv vazifa ham ishtirok etadi.

Til va tafakkur

Kommunikatsiya jarayonida nutqning faoliyat sifatidagi asosiy funksiyasi fikrni ifodalash hisoblanadi. Inson chuqur

uyquni hisobga olmaganda, doimo fikrlaydi. Mana shunday hollarda fikr nafaqat shakllanadi, balki to'liq va tugallangan holda vujudga keladi. Nutq tafakkurdan ajralmasdir. L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra «nutq tafakkurning so'zga aylanish, materiallashish jarayonidir»[11]. Tafakkur jarayoni hozirgacha to'liq anglangan emas.

Olimlarning e'tirof etishicha, tafakkurda mavjud hodisalar mohiyatini umumlashtirish muhim o'rin tutadi. Tushunchalar muloqot uchun material bo'lgan so'z orqali ifodalanadi. Demak, fikrlash – tushunchalardan foydalanish, ularni ifodalovchi so'zlarni bilishdir. Shuning uchun lisoniy vositalar (so'z zahirasi, grammatik shakllar va qurilmalar)ni bilish tafakkur va idrok etish faoliyatini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Bu yerda biz nutq va tafakkur masalasiga yetib keldik. Bu ikki tushuncha albatta, bir xil emas. Bir tomondan, tafakkur nutqqa nisbatan keng, u nafaqat tilda aks etadi, balki nutqiy fikrlash bilan bir qatorda amaliy natija beradigan va ko'rgazmali-obrazli fikrlashni ham qamrab oladi. Boshqa tomondan, qaysidir ma'noda, nutq tafakkurga nisbatan keng, u nafaqat tushuncha mazmuni haqida xabar beradi, balki qo'shimcha ravishda his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. Bundan tashqari, nutq uslubiy jihatdan bo'yoqdor va ijtimoiy tabaqalashtirilgan hamda o'zgaruvchandir.

Tafakkur mexanizmlari, shubhasiz, odamlarning millati va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar, hamma uchun umumiydir.Nutqning ikki ko'rinishi: ichki va tashqi ko'rinish farqlanadi. Ichki nutq fikrlarni og'zaki yoki yozma shakliga e'tibor bermay ifodalaydi. U lisoniy ma'nodan va aniq kommunikatsiya jarayonidan tashqarida foydalaniladi. Hatto nomlashning o'zidan ham tushunarliki, bu jarayon bevosita kuzatishdan yashirin, shuning uchun u hali to'liq

[11] Выготский, Л.С. Мышление и речь: Психологические исследования. – М., Лабиринт, 1996. – С.415.

o'rganilmagan. Ichki nutq jarayoni tez sur'atda sodir bo'ladi va uning lisoniy shakllanishi sharoitga bog'liqligi darajasiga ko'ra farqlanadi.

Ichki nutqning uch turi farqlanadi:

- **Ichki so'zlash,** tashqi nutq strukturasini saqlab qolgan, ammo tovush yoki grafik jihatdan rasmiylashmagan so'zlashdir. Bunday nutq qiyin sharoitlarda tafakkur vazifalarini hal qilish uchun xosdir;
- **Shaxsiy ichki nutq** - fikrlash vositasi sifatida ishtirok etuvchi o'z ichki nutqi. Bunda inson maxsus birliklardan (predmet kodlari, obrazlar kodlari kabilardan) foydalanadi. Bunday nutq tashqi nutq tuzilishidan farq qiluvchi o'ziga xos tuzilishga ega;
- **Ichki dasturlash** – bu nutqiy ifoda, yaxlit matn yoki uning qismlariga xos maxsus birliklarning shakllanishi va mustahkamlanishi;

Tashqi nutq – bu turli kodlashtirish mexanizmlari va kodlangan xabarlarni o'qishni qamrab olgan nutqiy faoliyat jarayonidir. Qisqagina ta'riflansa, tashqi nutq – bu biz talaffuz qiladigan, eshitadigan, yozadigan, o'qiydigan nutqdir.

Muloqot strukturasi

Muloqot strukturasi – bu muloqot jarayonini tashkil etuvchi asosiy unsurlarning ma'lum tartibdagi yig'indisidir. Bunda muloqotning tuzilish tavsifi asosiy elementlarga mos va ulardan har birining ichki tuzilishiga taalluqli bo'ladi.

Aloqaning asosiy komponentlari:

- subyektlar;
- lisoniy va nolisoniy vositalar;
- ehtiyoj, motiv va kommunikativ maqsad;
- nutqiy strategiya va taktika, o'zaro ta'sirning aloqa jarayonida aks etishi;
- nutqiy samara.

Aloqa strukturasiga boshqacha, bu jarayonning turli tomonlarini qamrovchi umumlashgan yondashuvlar ham mavjud.Tadqiqotlarda kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlar qayd qilinadi:

1. Kommunikativ (bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

Jumladan, muomalaning birinchi tomonida - tilga va uning amaliy ifodasi bo'lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar. Muomalaning ikkinchi tomoni - muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanishidan iborat. Muomalaning uchinchi tomonida - muloqotga kirishuvchilarning o'zaro bir-birini idrok qilish jarayoni namoyon bo'ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi[12].

Har bir yondashuv o'zicha to'g'ri bo'lib, ijtimoiy-psixologik aloqaning xususiy tuzilishi mezonlarini izohlaydi. Aloqaning semantik tomoniga kommunikativ yo'nalishda, interaksiya jarayonining shakliy-axloqiy jihatdan namoyon bo'lishi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.Ularning har biri o'z navbatida shakliy va tuzilish jihatdan idrok qilinishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, muloqot mohiyatini yoritib berishda psixologik yondashuv inson ruhiy kechinmalari, holatlari to'g'risida bahs yuritish bilan cheklanadi. Ularning ifodalanishi bevosita nutq faoliyatiga bog'liq. Mana shu holatlar lisoniy birliklar vositasida o'z tavsifiga ega bo'ladi. Bu esa til va faoliyat tushunchasining o'zaro chambarchas bog'liqligi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligi hamda shu ma'noda, tilga tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lgan pragmalingvistikaning

[12] Гозиев Э. Муомала психологияси. –Тошкент, Университет, 2001. 55-бет.

asosida yotuvchi faoliyat sifatida qarashning to'g'ri ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Muloqotda subyekt va obyekt munosabati

Muloqot jarayonining asosini til vositasida o'zaro munosabatga kirishish imkoniga ega bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Aloqaning amalga oshishi ana shu shaxslarning mavjudligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, aloqaning bo'lishi uchun so'zlovchi yoki yozuvchi hamda nutq qaratilgan shaxs – tinglovchi yoki o'quvchining bo'lishi shart. Agar ulardan birortasi bo'lmas ekan, nutqiy aloqa amalga oshmaydi. Ularning har biri muloqot jarayonida tutgan o'rniga ko'ra aloqaning obyekti yoki subyekti bo'lishi mumkin. Inson bir muloqot jarayonida o'rni bilan so'zlovchi yoki tinglovchi vazifasida ishtirok etadi. Bunda u muloqot xarakteri, mavzuga bog'liqligi va mazkur jarayonda tutgan o'rniga qarab o'z vazifasini o'zgartirishi mumkin. Umuman olganda, dialogik nutqda muloqotchilarning nutq jarayonida so'zlovchi yoki tinglovchi vazifasida ishtirok etishi qat'iy belgilangan emas. Nutq ishtirokchilarining so'zlovchidan tinglovchiga yoki tinglovchidan so'zlovchiga aylanib turishi nutq jarayonining rivojlanishi, yangi nutqiy vaziyatlarning yuzaga kelishi uchun yo'l ochadi.

Muloqot vositalari

Kishilar orasida aloqa imkoniyati mavjud bo'lishi uchun muloqotni ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar bo'lishi zarur.O'zaro aloqada mazmunli bo'lgan va lisoniy, madaniy va tasviriy vositalarga boy nutq asosiy o'rin tutadi. O'zaro muloqotda ishtirok etuvchi vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

♦ **Nutqiy muloqotning verbal vositalari**

♦ **Nutqiy muloqotning noverbal vositalari**

Nutq tilning og'zaki yoki yozma ko'rinishida juda ahamiyatli bo'lsa-da, bor-yo'g'i insoniy aloqalarda qurol yoki vositadir. Bu aloqaning verbal vositasidir. Aloqaning noverbal vositalari: mimika, ko'z ifodasi, pantomimika (turish, ishora, harakat, yurish) o'zini tutish tarzi, aloqachilarning o'zaro masofasi, ayniqsa, kishining tasviriy mimikasi juda muhimdir.

Nutqiy muloqotning etnosotsiopragmatik xususiyatlari bo'yicha kuzatish olib borgan Sh.Safarov va G.Toirovalar muloqotni tashkil etuvchi omillarni quyidagicha ko'rsatadilar: «Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi, undagi tinglovchi va so'zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko'p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo'lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiati va turlarini belgilaydi. Shunday qilib, *muloqotning ichki omillariga: lisoniy va nolisoniy vositalarni* kiritish to'g'ri bo'ladi. Muloqotning «salomlashish» bosqichida muloqot ibtidosini belgilovchi salomlashish, ko'rishish, so'rashish kabi lisoniy birliklar: so'z, so'z birikmalari, undov va hokazolar muloqotning ichki omili sifatidagi uning lisoniy vositasi sanaladi... Muloqotning ichki omili bo'lmish nolisoniy vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin: milliy-etnik vositalar, madaniy-etik vositalar. Ular ham o'ziga xos paradigmalarni tashkil etadi va o'z navbatida informasion va ifoda ma'no kasb etadi»[13].

Ko'rinadiki, nutqiy muloqotning voqelanishi uchun verbal va noverbal vositalarning bo'lishi, ularning o'zaro uyg'unligi talab etiladi. Fikrning verbal yoki noverbal

---

[13]*Сафаров Ш.,Тоирова Г.Нуткнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари.* – Самарқанд, 2007. 34-37-бетлар.

vositalar yordamida nutqning u yoki bu ko'rinishida ifodalanishi pragmatik mazmunning yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan verbal va noverbal vositalar so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muloqot vazifalari

Tilshunoslikda kommunikatsiya juda keng ma'noda tushuniladi. Insonda hamma narsa - nutqning tuzilishidan gavdaning qay holatda turishi, imo-ishora, mimika va tovushning jaranglashigacha ma'lumot ma'nosiga ega. Ammo bu boshqalar uni qabul qilish va tushunishlari uchun tayyor bo'lgandagina ma'lumotga aylanadi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. Tadqiqotlarda tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilim-larni to'plash, saklash) vazifalari mavjudligi va ularni farqlash lozimligini ta'kidlanadi[14]. Tilning o'z kommunikativ xususiyatlarini namoyon etishi bevosita muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatiga bog'liq bo'ladi. Nutqning qanday vaziyatda amalga oshayotganligi, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi va o'zaro munosabati, so'zlovchining kommunikativ maqsadi va uning qanday nutqiy strategiyalardan foydalanishi til birliklarining aloqa jarayonida qanday vazifa bajarishini belgilab beradi. Shu tufayli ilmiy tadqiqotlarda tilning «ekspressiv vazifasi», «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi turlicha vazifalari qayd etiladi. «Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira

[14] Аврорин В.А. Проблемы изучения функиональной стороны языка. -Л.,1975. -С. 44.

oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng»[15]. Keltirilgan ta'riflardan ham ma'lum bo'ladiki, muloqotning qanday vazifa bajarishi so'zlovchi kommunikativ maqsadi va til birliklarining nutqda ishtirok etish funksiyasiga bog'liq. Bu esa nutqiy muloqot xarakterini belgilab beradi.

Savollar va topshiriqlar

1. Muloqot strukturasiga oid qanday asosiy yondashuvlarni bilasiz?

2. Muloqotning qanday asosiy komponentlari mavjud?
3. Muloqot farqlanishining shakl va mazmunga ko'ra mohiyati nimada?
4. Muloqotning verbal va noverbal vositalari deganda nimani tushunasiz?
5. Muloqot vazifalarini sanang.

[15] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. 4-бет.

DISKURS. NUTQIY MULOQOT TIZIMI BIRLIKLARI

Reja:

1. Diskurs tushunchasi va uning mohiyati.
2. Diskurs, matn va kontekst munosabati.
3. Diskursning asosiy kategoriyalari.
4. Diskursni modellashtirish masalasi.

Tayanch so'z va iboralar: *diskurs, diskurs birliklari, adresant, adresat, so'zlovchi, tinglovchi, kommunikativ nutq, nutq vaziyati, samarali va samarasiz nutq.*

Diskurs tushunchasi va uning mohiyati

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir.

Diskurs lotincha discursus – muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim demakdir[16]. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda.

Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma'noda qo'llangan: 1) so'z muqobili; 2) frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan

[16]Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У. Фалсафа кискача изохли лугат. –Тошкент, Шарк. 126-бет.

holda fikrning adresatga ta'siri; 4) suhbat; 5) nutqda so'zlovchi pozitsiyasi; 6)lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar.[17]

Golland tilshunosi T. A. van Deyk diskursni bir nechta darajada ko'rib chiqishni taklif qiladi. U keng ma'noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma'noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. Ta'kidlash kerakki, T.A. van Deyk diskurs va matn o'rtasidagi farqni shunday belgilaydi: diskurs – aktual aytilgan matn, ya'ni faol nutqiy harakat, matn esa til tizimiga yoki shakliy lisoniy bilimlarga tegishli fikrlarning mavhum grammatik tuzilishidir. Diskurs – aniq suhbat, aniqlik esa diskurs tushunchasi qo'llanadigan vaziyatga, matnga va obyektga ham birday taalluqlidir. Diskurs – suhbat turi[18].

Diskurs janr kabidir. Nutqiy janr – tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o'ziga xosligi, aniq adresat, ma'lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan ajralib turuvchi nutq turi hisoblanadi[19].

Diskursning ijtimoiy tabiati yangilikli diskurs, publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelishiga imkon beradi. Talqin va izohlarning xilma-xilligi diskurs tushunchasining ko'p qirrali va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Insonning nutq orqali amalga oshadigan barcha ijtimoiy faoliyati diskursiv xarakterga ega. Nutqning ijtimoiy mohiyati matn bilan bog'langan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari matnning u yoki bu ko'rinishida namoyon

---

[17]Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. - С.37-64.

[18] Дейк Т.А. ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. -С. 372.

[19] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008, - С.523.

bo'ladi. U aniq sotsiopragmatik matnda amalga oshiriladigan, murakkab maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat sifatida bir tomondan, nutqning tarixiyligi bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiyligi bilan, uchinchi tomondan, mafkuraviyligi bilan bog'liq. Ma'lum bir individual diskursning alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi nutqning lingvopragmatik tabiati to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi.

Diskurs, matn va kontekst munosabati

Diskurs atamasi subyektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek, stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko'rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. Amalda, diskurs – bu matnning shakllanish usulidir.

Diskurs ilmiy atama sifatida sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya'ni strukturasiga, semantik jihatdan mazmun-ma'no planiga, pragmatik jihatidan esa perlokutsiya – xabar planiga ko'ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi.

Diskurs – bu til birliklarining ma'lum vaqtda va ma'lum joyda ma'lum maqsad bilan qo'llanilishi, ularning izchil bog'lanishidir[20].

Zamonaviy lingvopragmatikaning muhim muammolaridan biri «diskurs» tushunchasining *nutq, matn, fikr, dialog* kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir.

XX asrning oxirgi choragida tilshunoslikda matn va diskurs tushunchalarini vaziyat kategoriyasiga suyangan holda farqlashga urinishlar bo'ldi va bu borada Yevropa tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. Shunday, diskurs «matn plyus vaziyat» tarzida va ayni damda matn «diskurs

[20] Гурочкина А.Г. Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. -Рязань, 1999. -С.13.

minus vaziyat» shaklida izohlandi[21]. Bunday talqin unchalik ommalashmadi va keyingi ko'plab ishlarda «diskurs» va «matn» atamasi farqlanmay qo'llanmoqda.

Matn va uning tahlili kognitiv yondashuvning ma'lum sharoitdagi mezonlari asosida olib borilishi kerak.

«Diskursdan farqli ravishda matn aniq vaqtga qat'iy bog'langan emas, uning vaqt bilan aloqasi bilvosita namoyon bo'lish xarakterida bo'ladi. Matn tabiiy ravishda o'z-o'zicha mavjud bo'lmaydi, balki har qanday eskirishga va parchalanib ketishga mahkum bo'lgan mavjud obyektlar kabi matn ifodasi - obyekt materiali qobig'ida mavjud bo'ladi. Aslida matn bu vaqtda emas, balki madaniyat ko'lami vaqtida mavjud bo'ladi»[22].

Shu ma'noda matn eshitish, eslash, xotirlash maqsadida tuziladi, diskurs uchun bunday xususiyatlar xos emas, u zamonning ma'lum vaqtida mavjud bo'ladi. Diskurs olingan «ma'lumot»ning grafik belgilari bilan izchil shakllangan videoyozuv yordamida matnga aylanishi mumkin. M. Ya. Dimarskiyning fikricha, faqat matngina ma'lumotlarni to'play oladi, diskurs esa xabar yetkazishni ta'minlovchi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan matn – birinchidan kelib chiqqan ikkilamchi kommunikatsiyadir[23].

Funksional lingvistikada funksionallik-strukturalilik, jarayon- natija, dinamiklik-turg'unlik, faollik- nofaollik kabi diskurs / matn mezonlarini belgilashda qarama-qarshilikka asoslangan oppozision yondashuv yetakchilik qiladi. Shunga ko'ra «matn-natija» tuzilishi va funksional «diskurs-jarayon sifatida» ko'rinishi o'zaro muvofiq keladi. Shunday ekan, *gap* matn bilan bog'liq, *fikr* esa diskursga tegishli hisoblanadi.

---

[21] Ostman J., Virtanen T. Discourse analysis // Handbook of Pragmatics: Manual. -Amsterdam, Philadephia, 1995. -C. 240.

[22] Дымарский М. Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX—XX вв.). — СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999.-С.42.

[23] O'sha asar, 43-bet.

Diskursning asosiy kategoriyalari

Har qanday matn/diskursning funksional tahlili ifodaning ma'noviy asoslari diskurs kategoriyalari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Diskurs nazariyasining muhim tushunchalari sifatida *propozitsiya, presuppozitsiya, eksplikatura, implikatura, inferensiya* va *referensiya* kabilarni ko'rsatish mumkin.

Propozitsiya – qator gaplarning paradigmatik qayta o'zgarishlar bilan aloqador, fikrlarning tasdiq, buyruq, so'roq kabi turli kommunikativ vazifalari bilan o'zaro bog'liq invariant ma'nolaridir. U nutqiy vaziyatni ifodalab, tildagi lisoniy hodisalar vositasida tavsiflash, so'zlovchi yoki yozuvchini fikr ifodalashda asosli dalillar bilan qurollantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. N.Mahmudov «gap semantikasi obyektiv va subyektiv ma'nolar munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik degan qarashga moyillik bildiradi. Gapning obyektiv mazmuni deganda, gap orqali ifodalangan va inson ongida aks etgan obyektiv voqelikni tushunadi. Bu voqelik sintaktik semantikaning nominativ yo'nalishida propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Propozitsiya ma'lum gap semantikasida o'z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa hisoblanadi».[24] Umuman olganda, propozitsiya bilish jarayoni bilan bog'liq baholash xarakteridagi tushuncha bo'lib, semantik jihatdan ifodalanayotgan fikrning voqelik faktlariga mos kelishi yoki kelmasligini aks ettiradi.

A.V.Zelenshikov propozitsiyaning 1) haqiqiy ma'noni, 2) gapning mazmuni bo'la oladigan mavhum mohiyatni, 3) so'zlovchining intensional (mental) holatini ifodalovchi sifatida qarab, shunday xulosaga keladiki, propozitsiya har qanday holatda ham tilning funksional tabiatini aks ettiradi va gapda deskriptiv yoki propozitsional konsept modusi sifatida

---

[24] *Бу ҳақда қаранг:* Нурмонов А. Шакл ва мазмун муносабати – лингвистик тадқиқотлар асоси. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент,2010 №4, -Б.29.

ifodalanadi. Fikrning haqiqiy ma'nosi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan propozitsiyaning namoyon bo'lish usulini belgilashda so'zning voqelikka mos kelish yoki kelmasligiga bog'liq holda rost yoki yolg'on sifatida qaralishi, amalga oshish yoki oshmasligiga e'tibor beriladi[25].

Presuppozitsiyaning o'rganilishida har bir muallifning o'ziga xos yondashuvini ko'rish mumkin. Bunday yondashuvni presuppozitsiya hodisasiga bergan ta'riflarda, tasniflarda va uning tabiatini belgilashda ko'rishimiz mumkin. Ularning barchasida gapning to'g'ri qo'llanilishi va to'g'ri anglanishi uchun zarur bo'lgan va oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyatni o'z ichiga olish xususiyatidan kelib chiqilgan holda tadqiq etiladi. Bunday har xillikni, bizningcha, shu hodisaning o'zidan qidirish kerak bo'ladi. Chunki, presuppozitsiya hodisasi nihoyatda keng qamrovli bo'lib, har qanday gapda u yoki bu tarzda mavjud bo'ladigan murakkab hodisa bo'ladi. Presuppozitsiya gapning to'g'ri qo'llanilishi va to'g'ri anglanishi uchun zarur bo'lgan va so'zlovchi haqida tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyat kabi murakkab elementlarni o'z ichiga olganligi bilan ham keng ko'lamda o'rganilishi kerak bo'lgan hodisa hisoblanadi[26].

Presuppozitsiyani asosiy mantiqiy xulosa, mazkur fikrning rostligi a) semantik jihatdan anomal bo'lmasligi (semantik presuppozitsiya); b) mazkur kontekstda o'rinli bo'lishi (pragmatik presuppozitsiya) uchun shart bo'lgan ma'noviy qism sifatida talqin qilish mumkin.

M.L.Makarovning fikricha, «presuppozitsiya – fikrning kognitiv sodir bo'lishi, uning tabiati, presuppozitsiyaning tahlil qilinishiga imkon beradigan atribut»[27].Diskurs tahlili

---

[25] Зеленщиков А. В. Пропозиция и модальность. СПб.: Изд-во С.-Петербург, ун-та, 1997. –С. 208-209.

[26] Раҳимов У. Пресуппозицияни ўрганишнинг назарий асослари//Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. – Андижон, 2012. 259-бет.

[27] Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – М., 2003.-С.135.

uchun fikrning o'rinli va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi pragmatik presuppozitsiya muhim hisoblanadi. Uning asosida – *aloqachilarning umumiy kognitiv zahirasi* (kontekst propozitsiyalarining umumiy to'plami – muloqot vaziyat qatnashchilarining birgalikdagi faoliyati qiyin kechadigan yoki imkonsiz bo'lgan umumiy presuppozitsiyalar zahirasi) yotadi.

A.K.Mixalskaya fikricha: «Pragmatik presuppozitsiya – so'zlovchining ma'lum adresat uchun ma'qul keladigan fikrlarni ifodalash vaziyatida qo'llaydigan gaplaridir»[28].

Bunday yondashuvda propozitsiya va presupppozitsiya orasida dialektik bog'liklik borligini P. S. Stolneyker propozitsiya agar so'zlovchi kontekstning boshqa ishtirokchilari ham shunday deb hisoblashiga asoslanib, uning rostligini tabiiy deb hisoblasa, pragmatik ma'noda presuppozitsiya hisoblanishini, unga nutqiy muomalada namoyon bo'luvchi murakkab qiziqish, moyillik sifatida qarash to'g'ri bo'lishini qayd etadi[29]. Demak, presuppozitsiya so'zlovchi tasdiqlari, savollari, buyruqlari kabi nutqiy harakatlari asosida belgilanadi.

Referensiya – (lot. refere – munosabatda bo'lmoq, taqqoslamoq) lisoniy belgi va shu belgi bilan belgilangan obyekt (nolisoniy voqelik obyekti) o'rtasidagi munosabatdir. Pragmatikada referensiya ancha murakkab tushuniladi. Tadqiqotchilar uning tarkibiga nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan adresant, leksik birliklar, obyektiv voqelik, adresat kabi to'rt komponentni kiritadilar[30]. Pragmatik yo'nalishda referensiya presuppozitsiya bilan bog'liq. Bu ikki kategoriya ham diskurs mexanizmlarining bog'liqligini va nutq subyektlarining o'zaro ta'siri, bir –birini tushunishining eng ma'qul sharoitini tavsiflaydi. Bunday

---

[28] Михальская А. К. Педагогическая риторика: история и теория. – М., 1998. –С.32.

[29] Столнейкер Р. С. Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. -Вып. 16. Лингвистическая прагматика. -М., 1985. -С. 419-438.

[30] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону,Феникс.2008, -С.519.

holatda so'zlovchi va adresat voqelik faktlarini bilishiga ko'ra bir xil mavqeda bo'ladi, adresatga yangi ma'lumot berishda referensiya muhim o'rin tutadi. Bunda «aniq referensiya mavjud obyekt presuppozitsiyasiga tayanadi»[31].

Diskurs nazariyasi va uning asosiy muammolari haqida gapirilganda, diskursning eng muhim kategoriyalari hisoblangan eksplikatura va implikatura haqida ham to'xtalishga to'g'ri keladi.

Nutq jarayoni tahlilida diskursda eksplitsitlik va implitsitlik hodisalarini o'zaro nazariy jihatdan moslashtirish dolzarb hisoblanadi. Bu esa kommunikatsiya jarayonida propozitsiyaning ifodalanishi faqat til birliklariga bog'liqlik bilan cheklanib qolmasligini, bunda noverbal vositalarning ham ma'lum darajada o'rni borligini ko'rsatadi.

Kommunikatsiyaning zamonaviy ma'lumot - kod modeli fikr ifodalash uchun kontekstning ichki (kognitsiya) va tashqi (perseptsiya) imkoniyatini qarab chiqishni, inferension mexanizmlarni tavsiflashni taqozo qiladi. Bunda «eksplitsitlik» ma'nosi muhim hisoblanadi.

Ifodalanayotgan fikrning eksplitsitlik darajasi shakliy (xususan, lisoniy) komponentlarning mavjudligiga qarab belgilanadi. Diskurs implikaturasi konvensional aniqlanmagan ma'no va mazmunning asl yo'nalishlarini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

G.P.Grays fikricha, «so'zlash» va «o'ylanmoq» o'rtasidagi chegara zamonaviy lingvopragmatikaning mohiyatini belgilab beradi. Bunda mazmunning ikkinchi yo'nalishi diskurs kategoriyalari, ma'no va mazmunning muvofiq bo'lmagan, belgilanmagan konvensional yo'nalishlarini qarab chiqadigan – *implikatura* bilan shartlangan bo'ladi.

G.P.Grays nazariyasida *konvensional implikatura* qo'llanilgan so'zlarning ma'nosiga qarab belgilanadi.

---

[31] Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. - М.: Языки русской культуры, 1999. -С. 896.

Kommunikativ implikatura esa nutqiy vaziyatga bog'liq holda mo'ljallangan va nazarda tutilgan fikrlarni ifodalashda ma'noli chekinishga qarab belgilanadi.[32]

Kommunikativ implikatura diskursda implitsit ma'lumotning boshqa turlaridan farqlanuvchi bir qator belgilarga ega. Ular quyidagilar:

- fikr ma'nosidan ularning miqdori chiqariladi;
- ular presuppozitsiyadan farqli ravishda fikr ma'nosidan ajralmas hisoblanadi;
- ular konvensional emas, shuningdek, lisoniy shaklning konvensional qismi hisoblanmaydi.

Inferensiya – bu kognitiv tahlil bo'lib, adresant nutqida ko'zda tutilgan maqsad haqida ma'lumotga ega bo'lmagan adresat fikr ma'nosini to'ldiradi. Shakliy intensiyaga *mantiqiy xulosa*, *semantik presuppozitsiya* va *konvensional implikatura*ni kiritish mumkin.

Bunda deduktiv intensiya xulosa chiqarishning ma'lum turiga asoslanishini, kontekstning ijtimoiy-madaniy, kognitiv, perseptiv va me'yoriy darajalarda kengayishi induktiv shartlanganligini hisobga olish kerak.

Inferensiya va implikatura o'zaro bog'liq bo'lib, unda adresantning shaxsiy tajribasi, vaziyat modeli muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[32] Грайс Г.П. Логика и речевое общение / Г.П. Грайс; пер. с англ. В.В. Туровского // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.

Diskursni modellashtirish

Diskurs turli sathdagi lisoniy birliklar strukturasidan farq qiluvchi o'z tuzilishiga ega. Diskursning asosiy tuzilish birliklari kommunikativ akt, kognitiv korrelyat (mazmuni boshqa tushuncha bilan munosabatdagina ochiladigan tushuncha)lardan iborat. Kommunikatsiya jarayonida aloqachilarning iyerarxik maqsadli harakatlari mavjudligi, voqelik xarakteri, aloqachilar faoliyati ko'rinishlarining ma'lum ssenariylari belgilanadi. Bundan tashqari, har qanday nutqiy hodisa har bir xalq madaniyatining kategorial va ramziy me'yorlari, marosimlar, urf-odatlar, faoliyat usullari bilan bog'liqligi diskurs jarayonini konvensional jarayon deb hisoblashga imkon beradi.

Diskursiv model uchun asos bo'ladigan ijtimoiy – madaniy mezonlar quyidagilar:

- **ijtimoiy kontekst**: shaxsiy, umumiy, yuzaki, qat'iy, shuningdek, pozitsiya (o'rni, mavqeyi, ahamiyat kabi); xususiyat (jins, yosh, axloq kabi); munosabat (muloqot jarayonidagi ustunlik, nufuz), vazifa (ota, uy bekasi, qoralovchi, hisobchi, bog'bon kabi);

- **nutqiy aloqa shakllari:** munozara, muhokama, yig'ilish, dialog, eshitish, ommaviy kommunikatsiya va shu kabilar.

- **So'zlashuv nutqi ko'rinishlari**: suhbat, shaxsiy suhbat, bir piyola choy ustida suhbat, stol atrofidagi suhbat, kasbga oid suhbat, sotuvchi va oluvchi suhbati, konferensiya, munozara, dars, intervyu; konsultatsiya va boshqalar.

Diskursning modeli tuzilishini belgilovchi lingvistik mezonlar turlicha. Bunga nutqning matndagi ichki va matndan tashqari tavsiflarini kiritish mumkin[33]:

[33]Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

- **konstitutiv** (nisbiylik, mavzuga xoslik, uslubiy va tuzilish birligi, fikrning nisbiy tugallanganligi);
- **janriy-stilistik** (uslubga xoslik, janr qonun-qoidalari, me'yoriylik, amplikasiya darajasi (kompressiya);
- **semantik--pragmatik** (nutqning ma'lum obyektga qaratilganligi, muallif obrazi, ma'lumot belgisi, modallik, talqin, intertekstual mo'ljal);
- **shakliy-struktur** (kompozitsiya, bo'laklarga ajralish, kogeziya).

T.V. Shmelevaning ko'rsatishicha, janriy tavsif katta ahamiyat kasb etadi[34]:

- **kommunikativ maqsad** (informativlik, imperativlik, etiketli va baholovchi nutqiy janrlar);
- **muallif obrazi;**
- **adresat obrazi;**
- **o'tmish obrazi**(nutqiy hodisaning o'tmish bilan bog'liqligi);
- **kelajak obrazi** (taklif, va'da, taxmin), *diktum* (voqeli);
- **mazmun** (tushunchalar yig'indisi, ularning munosabati, vaqtinchalik istiqbol rejasi va diktum voqeani baholash);
- **nutqiy janrning lisoniy gavdalanishi.**

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, kommunikativ jarayonning amalga oshishi uchun bir qator komponentlarning o'zaro bog'liqligi va munosabati diskursning o'ziga xos modelini hosil qiladi. Bu model asosida adresant va adresat hamda xabar munosabati yotadi. Bu munosabatga bog'liq holda muloqot ishtirokchilari tomonidan tegishli kanal tanlanadi, matnning janriy har xilligini ko'rsatuvchi kodlar belgilanadi hamda mazkur

[34] Шмелева Т.В. Модель речевого жанра // Жанры речи. Саратов: Колледж, 1997. -С.88-98.

kommunikatsiya natijalari yangi nutqiy vaziyatga, ya'ni teskari aloqaga yo'l ochadi.

Diskurs modelini zamonaviy kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra quyidagicha sxemada ko'rsatish mumkin:

DISKURS MODELI



Diskurs nazariyasida muhim o'rin tutuvchi aloqaning tuzilish sistemasi quyidagi komponentlardan tashkil topishi mumkin:

- «ma'lumot beruvchi» aloqa. Bunda adresant tomonidan obyektiv voqelikdagi yangiliklar, o'zgarishlar haqida ma'lumot beriladi;
- «hamkorlik» aloqasi. Bu aloqa yordamida muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'siri ta'minlanadi;
- «imperativ» aloqa. Bu aloqa direktiv diskurs doirasida buyurish, boshqarish intensiyasi tufayli qo'llaniladi;
- «baholovchi» aloqa. Voqelik faktlariga munosabat bildirish zarurati baholovchi nutqiy aktlarni qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Kommunikativ o‘zaro ta’sir doirasida kontekstda nutq turlarining bu strukturasini quyidagicha tasniflash mumkin:

- xabar-eslatish (xabar, tasvirlash,tiklash va umumlashtirish);
- volyuntiv-direktiv (istak);
- nazorat-reaktiv (baholovchi reaksiya);
- emotiv (kommunikativ o‘zaro ta’sirni ifodalovchi gap);
- manipulyativ (ijtimoiy ustunlik, pog‘onali munosabat).

Diskurs modelida ma’lumotlarni idrok qilish va namoyon qilish jarayonini aniqlashda qo‘llanadigan quyidagi iyerarxik uyushgan modullarni ajratish mumkin:

- **Konseptual modul** – diskursning syujetli-mavzuiy strukturalarini belgilash va o‘zlashtirilgan ma’lumot konseptual komponentlarining anglab yetilishi bilan bog‘liq;
- **kognitiv modul** - ma’lumotning semantik ma’nosi samarali bo‘lishini ta’minlovchi voqelikning vaqt ko‘lamida kommunikantlar maqsadlarining psixologik jihatdan aynan bir xil shartlanganligi (kognitiv rezonans);
- **xronologik (xronotopik modul)** - diskursiv jarayonning vaqtinchalik tavsifini hisobga olishga mo‘ljallangan;
- **aksiologik modul** - hosil qilingan matn/diskursning rejalashtirilgan semantik-stilistik shakllarining aksiologik mahsulot sifatida amalga oshishiga qaratilgan;
- **madaniy modul** - adresant va adresatning madaniy o‘zaro ta’sirini ta’minlovchi va yetkazilayotgan ma’lumotni tushunish va o‘zlashtirish uchun kommunikantlarning lisoniy olam manzarasiga moslashishi;
- **me’yoriy-konvensional modul** - milliy madaniyat doirasida diskursning yetakchi me’yorlari: urf-odatlar,

marosimlar, shuningdek, muloqotning ijtimoiy-madaniy boshqaruviga asoslangan chegaralanishlar bilan bog'liq (kommunikativ kompetensiya);

- **individual-shaxsiy modul** - kommunikativ jarayon ishtirokchilarining arbob sifatida shaxsiy tavsiflariga munosabatda bo'lish (temperament, aql-idrokiy yoki emotsional reaksiya ko'pligi, konservatizm yoki novatorlikka moyillik, o'ziga xoslikka intilish yoki taqlid va shu kabilar).

Yuqorida keltirilgan modullar belgilangan mezonlar bo'yicha kommunikativ jarayonni modellashtirishda ko'zlangan harakatlarni hosil qiladi. Shular asosida kommunikantlarning diskursiv strategiyalari amalga oshadi hamda ularning ijodiy individualligi namoyon bo'ladi [35].

Savol va topshiriqlar:

1. Diskurs tushunchasini izohlang.
2. Diskurs, matn va kontekst tushunchalarining farqini aniqlang.
3. Diskursning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Presuppozitsiya nima?
5. Diskurs modeli uchun asos bo'ladigan mezonlar qaysilar?
6. Aloqaning tuzilish sistemasi qanday komponentlardan tashkil topadi?

[35]Олешков М. Ю. Пропозициональная синхронизация в дидактическом дискурсе // Лингвистика. Выпуск 15. - Екатеринбург. – 2005с. - С. 201-208.

DISKURS VA BAHOLASH FAOLIYATI

Reja:

1. Baho tushunchasi va uning mohiyati.
2. Baho va diskurs munosabati.
3. Diskurs strukturasi.

Tayanch iboralar: *baho, falsafiy baho, etik baho, psixologik baho, estetik baho, baholovchi diskurs, volyuntativ munosabat, emotiv munosabat.*

Baho tushunchasi va uning mohiyati

Antroposentrik nazariyaga ko'ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo'lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar markazida turadi. U obyektiv olamdagi o'z hayoti va faoliyatiga aloqador bo'lgan voqea-hodisalar, harakatlardan ta'sirlanadi va o'z navbatida ularga munosabat bildiradi. Bu munosabat turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Uning hayotiy tajribalari asosida chiqargan xulosalari, asosli, teran mushohadalari falsafiy bahoni, ijtimoiy hayotdagi turli holatlarga o'z tafakkuri mezonlariga tayanib munosabat bildirishi mantiqiy bahoni yuzaga keltiradi. So'zlovchining munosabat bildirishda jamiyatning axloqiy qoidalariga amal qilishi etik bahoni, o'z sezgilari, didiga tayanishi estetik bahoni, aqliy va his-tuyg'ularga asoslanishi esa psixologik bahoning shakllanishi uchun asos bo'ladi. Baholash qanday ko'rinishda bo'lmasin, faqat lisoniy birliklar vositasidagina ifodalanadi. Boshqacha aytganda, baholashning turli ko'rinishlarini o'zaro tutashtirib turuvchi chorraha markazida insonning nutqiy faoliyati turadi. Shunga ko'ra baholash hodisasi lisoniy kategoriya sifatida kognitiv tilshunoslikning

asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv jarayonda insonning turli voqea-hodisa, narsa va predmetlardan zavqlanishi, ichki kechinmalari o'zaro muloqotda tildagi mavjud baholovchi birliklar vositasida yuzaga chiqadi. Diskursda baho yakka shaxsning hayotiy tajribalari, baholanuvchi obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, tajribasi, ma'lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste'dodi kabilar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Inson o'z hayoti, faoliyati jarayonida o'zini o'rab turgan obyektiv borliq bilan tinimsiz munosabatda bo'ladi. U predmetlar, hodisalar, turli vaziyatlarni, boshqa subyektlar xatti-harakatlarini, shuningdek, o'z imkoniyatlarini, harakatlari natijalarini baholab boradi. Mazkur holat bahoning subyektning subyektga bo'lgan modal – volyuntativ, boshqa predmet va hodisalarga bo'lgan subyektiv, emotiv munosabatining ifodalanishida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. «Ma'lumki, nutq kommunikativ vazifa bilan bir qatorda emotiv vazifani ham bajaradi, ya'ni u inson his-tuyg'ularining ifodasi bo'lish bilan birga, so'zlovchi psixikasi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi vosita hamdir»[36].

Subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabat ifodalanishida baholash xarakteri muhim o'rin egallaydi. U baholanayotgan obyektning subyekt uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga egaligiga hamda subyektning obyektga nisbatan talab va ehtiyojiga qarab belgilanadi. Subyektning obyektga nisbatan turli munosabat bildirishga undaydigan qarash va dalillari baholash asosi hisoblanadi. Baholash asosi muqim emas, chunki jamiyat taraqqiy qilar ekan, kishilarning narsa va predmetlar, voqea –hodisalarga munosabati ham shunga mos holda o'zgarib turadi. Shunga bog'liq holda jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorlar, baho mezonlari, qat'iylashgan tasavvurlar ham ma'lum bir o'zgarishlarga

[36] Худойберганова Д. Матн яратилишининг антропоцентрик талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 6-сон, 92-95-бетлар.

uchraydi. Bir davr uchun maqbul ko'rilgan o'lchov va mezonlar boshqa davrda qabul qilinmasligi, talab va ehtiyojlarga mos kelmasligi baholashning o'zgaruvchan tabiatini belgilaydi. Baholashning turlicha tasniflanishida yuqorida qayd etilgan baholash qarashlarga tayanib ish ko'rilganliги bejiz emas.

Ijobiy va salbiy baho o'zaro farq qiladi. Ijobiy baholashda baholash obyektiga xos xususiyatlar haqida ma'lumot berilganda ma'qullash semasi sezilib turadi. Bunda ifodalanayotgan fikr subyektning baholash uchun asos bo'lgan faktlarga, aytilgan propozitsiya muhimligiga ishonchini o'zida aks ettiradi. Salbiy baholashda esa uning aksi kuzatiladi. Bunda ma'qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora semari sezilib turadi.

Baho va diskurs munosabati

Baho tushunchasi diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Baholovchi diskursni tadqiq etish tilning birgina lisoniy xususiyatlarini emas, balki aloqani ta'minlashdagi xarakterli boshqa tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi.

Baholash xarakteridagi diskursni uch yo'nalishda tadqiq qilish mumkin:

1) kommunikativ nuqtai nazardan;
2) ijtimoiy shartlangan vaziyatlardagi o'zaro ta'sir sifatida;
3) lisoniy birliklardan foydalanish usuliga qarab o'rganish.

Bu esa insonning o'y-kechinmalari, orzu-umidlarini baholovchi til birliklarining ta'siri va bu vositalardan qanday maqsadda foydalanish bo'yicha muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Tilshunoslikda diskurs bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumiy bir maxrajga keltirilsa, quyidagi holat namoyon

bo'ladi: ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, diskursda so'zlovchi baholash makrostrategiyalariga ega bo'lishi kerak. Ulardan eng asosiylaridan biri adresatga ruhiy ta'sir etish hisoblanadi. Tadqiqotchilar uni baholash vaziyatlariga qarab talqin qiladilar. Bir guruh olimlar esa shunga asosan emotsional baholovchi diskurs tushunchasini muomalaga kiritadilar. Diskurslar aksiologik yoki emotsionallik jihatidan ta'sirchan, hissiy bo'yoqdor, so'z ma'nolarining ko'p vazifaviyligini ta'minlovchi xarakterga egaligi, baholarning ijobiy yoki salbiylik semasi nuqtai nazaridan oppozitsiya hosil qilishi hamda salbiy baholovchi birliklar ko'pligi bilan xarakterlanadi.

Baholash diskursi haqida gapirilganda, nutqiy vaziyat, baholovchi birliklarning o'ziga xos intensiyalari, baholashga xizmat qiluvchi dalillardan munosabat bildirishda maqsadli foydalanish masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Individuallik baholovchi diskursning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'zaro muloqotda so'zlovchining turli maqsadli harakatlarida namoyon bo'ladi.

Diskurs tahlili baho konseptining pragmatik qatlamlarini tadqiq qilishda samarali usul hisoblanadi.

Inson o'zini o'rab turgan obyektiv borliq, tabiat va jamiyatga xos qonuniyatlarni, voqea-hodisalarni sezgilari yordamida idrok qiladi, o'zining tasavvurlari va aqliy mushohadalariga ko'ra xulosalarini, his-tuyg'ularini mavjud lisoniy birliklar vositasida ochiq yoki yashirin tarzda ifodalaydi.

Nutq o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra «so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa»[37] hisoblanadi. Ko'rinadiki, nutq ongli maqsad, his-tuyg'u, munosabatni ifodalovchi murakkab jarayondir. Baho konseptining

---

[37] Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.-Тошкент.Ўқитувчи,1985. 61-бет.

pragmatik qatlamlarini tahlil qilishda interpretativ[38] xususiyatga egaligi va matnni tushunishga yo'naltirilganligiga ko'ra diskurs-tahlil usullaridan foydalanish ancha qulaylik tug'diradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Lisoniy baho deganda nimani tushunasiz?
2. Bahoning fanlararo atama bo'lishining sababi nimada?
3. Baholash kategoriyasiga yondosh qanday hodisalarni bilasiz?
4. Diskurs strukturasi haqida ma'lumot bering.

[38]Қаранг: Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: "Феникс", 2008,-С.220.

DISKURS STRUKTURASI.

Reja:

1. Adresant (so'zlovchi).
2. Nutq adresati.
3. So'zlashuv presuppozitsiyasi.
4. Xabar maqsadi.
5. Ichki nutqiy akt strategiyasi.
6. Muloqot matni va vaziyati.

Tayanch so'z va iboralar: *adresant, adresat, presuppozitsiya, strategiya va taktika, matn, vaziyat, kommunikativ maqsad.*

Diskurs muloqotchilarning o'zaro munosabatlari doirasida aloqa, xabar va ta'sir etishga qaratilgan maqsadli harakatlaridir. Unda tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. Bu vazifalar diskursda turli nutqiy aktlar sifatida namoyon bo'ladi. Pragmatikaga doir tadqiqotlarda diskurs tuzilishining asosiy komponentlari sifatida so'zlovchi va uning nutqi qaratilgan shaxs, kommunikativ maqsad, nutq voqelanishining strategiya va taktikalari, muloqot matni va nutqiy vaziyat kabilar qayd etiladi[39]. Ularga asoslangan holda diskurs tuzilishini quyidagicha sxemalashtirish mumkin:

[39] Якобсон Р. Избранные работы.- М.: Прогресс, 1985. С.34; Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи // ИЯШ. -М.:1982.-№5.-С.11-17.

DISKURS TUZILISHI



Quyida diskursning asosiy qismlari hisoblangan bu tushunchalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

- **Adresant.**

Adresant – diskurs tuzilishida ishtirok etuvchi markaziy figura. Chunki har qanday muloqot bo'lishi uchun dastlab adresatning bo'lishi talab etiladi. Uning kim bilan munosabatga kirishish istagiga ko'ra nutq qaratilgan subyekt tanlanadi. Bu adresat hisoblanadi. Adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlar doirasida kommunikativ maqsad yotadi. Bu maqsadning amalga oshish yo'llari va usullari mavjud adabiyotlarda strategiya va taktika atamalari bilan yuritiladi. Tildagi temporal munosabatlar, obyektiv va subyektiv modallik, baho, emotivlik kabi tushunchalar so'zlovchiga bog'liq kategoriyalar hisoblanadi. Nutqiy aktlar tahlilida so'zlovchining muloqotdagi faol yoki nofaolligi, tajovuzkorligi, xushomadgo'yligi, romantikligi, oliyjanobligi kabi bir qator nutqiy xulqni ifodalovchi xususiyatlari

aniqlanadi. Ijtimoiy tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhlardagi o'zaro muloqot xususiyatlari, ular orasidagi aloqa jarayonida qanday lisoniy birliklarning tanlanishi turli ifoda usullarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga bunday o'zgarishlar so'zlovchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir[40]. Shuning uchun baho diskursida so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi kabilar uning lisoniy birliklardan tanlab olishiga ta'sir qiluvchi muhim omillar hisoblanadi.

- **Adresat.**

Adresat – nutqiy aktni tashkil etuvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Har bir xabar diskursda qo'llanish maqsadiga ko'ra adresatga bog'lanadi.Unda adresatga ma'lumot yetkazish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, munosabat bildirish, fikr ifodalashga yoki biror xatti-harakatni bajarishga undash kabi maqsadlardan biri ko'zda tutiladi. Xabarda adresatni harakatga undash yoki uning psixologik holatini o'zgartirish maqsadi amalga oshiriladi[41], chunki so'z nafaqat tushunchalarning ifodasi, shu bilan birga fikrlash, his-tuyg'ular va obrazlarni keltirib chiqarish vositasi ham hisoblanadi. Adresat va diskurs informativlik, ekspressivlik, nutqning aniqligi[42] kabi kategoriyalar orqali bog'lanadi. Tadqiqotlarda yakka adresat, kollektiv adresat, ommaviy adresat, kvaziadresat, nomuayyan adresat, noma'lum adresat kabi turlar mavjudligi qayd etiladi[43].

---

[40] Ирискулов М.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, "Ўқитувчи", 1992.-Б.159-160.

[41] Стивенсон Ч. Некоторые прагматические аспекты значения // НЗЛ. Вып. 16.-М.: Прогресс, 1985.-С. 129-154.

[42] Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи // ИЯШ. -1982.-№5.-С.11-17.

[43] Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Известия АН. Серия "Литература и язык"., - Т. №4. 1981. - С. 356-367; Степанов Ю.С. В поисках прагматики (Проблема субъекта) // «Литература и язык». - 1981. - № 4.-С. 325-332; Стернин И.А. Фактор адресата в речевом воздействии // Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. - 2004. - № 1. - С. 171-177;

Nutqiy akt adresatga turli tomondan ta'sir qilishi mumkin. Maslahat, tahdid, ma'qullash, ayblov kabi harakatlar adresatning aql-zakovatiga mo'ljallanadi. Ishonch, shikoyat kabi nutqiy aktlarda adresat his-tuyg'ulariga, undash, ko'ndirish esa adresat irodasiga ta'sir etadi.

Demak, nutqiy aktlarni adresatga qanday ta'sir qilishiga ko'ra ma'lum bir guruhlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

- **Presuppozitsiya.**

Adresant va adresat presuppozitsiyasi masalasi nutqiy aktlarda baholashning amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash diskursida adresatning funksional imkoniyatlari bir muncha cheklangan. U faqat axborotni qabul qilib oladi va uni o'z o'lchovlari asosida qayta ishlaydi. Konkret vaziyat, madaniy muhitda aloqa bog'lash qoidalari hamda me'yorlari kabilar haqida yetarli axborotning mavjudligi harakat amalga oshishining sharti hisoblanadi. Bu ma'lumotlar presuppozitsiyani tashkil etadi. «Nutqiy kommuniksiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo'lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilim tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi»[44]. Kishining presuppozitsiyalarni tanlashi o'z fikrlari va savollari asosida belgilanadi. Presuppozitsiyalar – nutqiy axborot berilmasdan oldin tushunilishi noma'lum bo'lgan narsalardir. So'zlashuv jarayonida til birliklarining qay darajada qo'llanishi nutq ishtirokchilarini bir-birlarini tanish darajasiga ham bog'liq. Agar bu daraja ko'p vaqtni

---

Дьячкова И.Г. Похвала и порицание как речевые жанры // Вестник Омского университета. - 1998. - №3. - С. 55-58.

[44] Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент,1986. №6, 29-бет.

tashkil etsa, suhbat mavzusi, nutq obyekti adresantga ham, adresatga ham birday tushunarli bo'lganligi uchun baholashda umumiylik hosil qilinadi. Kam miqdordagi lisoniy birliklar vositasida umumiy yaxlit fikrlar ifodalanadi. Bu esa baholashda o'ziga xos nutqiy tejamkorlikni yuzaga keltiradi.

♦ Kommunikativ maqsad.

Kommunikativ maqsadning diskurs komponenti sifatida ifodalanish darajasi lingvostilistik vositalarning qo'llanilishiga qarab belgilanadi. So'zlovchining har bir nutqiy harakati zamirida ma'lum bir maqsad yotadi. O'zbek tilida muloqot jarayonida axborot, maslahat, nasihat, ishontirish, ogohlantirish, rag'batlantirish, tanbeh, tahdid, haqorat, qo'rqitish kabi turli kommunikativ maqsadlar nutqiy ifodalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ifodalarga nisbatan tilimizda «nutqiy akt» atamasi qo'llaniladi. Biz bu haqda ishning keyingi mavzularida alohida to'xtalib o'tamiz.

Kommunikativ maqsad tushunchasi kommunikativ akt bilan chambarchas bog'liq. Chunki so'zlovchining maqsadi bevosita nutqiy ifodalarda – nutqiy aktlarda o'z ifodasini topadi. Bu kommunikativ maqsadning illokutsiya (fikr-mulohazalarning maqsadli yo'naltirilganligi) bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, Dj.Syorl «illokutiv kuch» tushunchasini nutqiy aktlar nazariyasining bosh yutug'i deb hisoblaydi. Muallif bu atama doirasida tanbeh, tahdid, haqorat, qo'rqitish, tasdiqlash, va'da berish kabi munosabat ma'nolarini – baholash maqomini tushungan. Illokutiv kuch o'zida illokutiv maqsad, samimiylik sharti, intensivlik shartini mujassamlashtiradi va shu asosda nutqiy vaziyatda so'zlovchining maqsadlari ko'p jihatdan uning intensional holati, istaklari, ijobiy munosabati, adovati,

jirkanishi, umid uzishi va shu kabilar bilan belgilanadi[45]. Nutqiy aktlarda bu komponentlar turlicha namoyon bo'ladi.

♦ **Kommunikativ strategiya.**

Kommunikativ strategiya har qanday diskursda asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Diskursda obyektning u yoki bu xususiyatigina emas, subyektning kommunikativ maqsadi ham ifodalanadi. Lingvostilistik vositalarning tanlanishi, illokutiv aktning yuzaga chiqishi, ya'ni so'zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatning implitsit yoki eksplitsit ifodalanishi subyektning maqsadli harakatiga bog'liq. Shu asosda subyekt diskurs strategiyasini (suhbat maqsadini qanday amalga oshirish usulini) ham belgilab oladi.

Adresatning muayyan psixologik kayfiyatini vujudga keltirish va saqlash, lingvomentallik asosida chegaralash (birinchi navbatda muloqot jarayonida suhbatdoshga nisbatan muayyan pozitsiyani egallash); diskursning har qaysi ko'rinishida o'zaro tushunishni ta'minlash; adresatning nutq jarayonida o'z javoblarini navbat bilan ifodalashi uchun sharoit yaratish baholash diskursiga xos maqsadli harakatlar hisoblanadi [46].

Diskursda so'zlovchi o'z maqsadiga erishish uchun turli disoniy vositalar, nutqiy kombinatsiyalarni qo'llaydi. Muloqotda qo'llaniluvchi verbal va noverbal vositalar, turli strategiya va taktikalar, kombinatsiyalar bir umumiy maqsadga – so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qiladi.

---

[45] Сёрль Дж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов //НЗЛ. Вып 18. - М: Прогресс, 1986. - С. 172.

[46] Дейк Т.А. ван, Кинч В. Стратегии понимания связного текста // НЗЛ. Вып. 23.-М.: 1988. -С. 178.

- **Muloqot vaziyati.**

Har qanday nutqiy faoliyat muayyan kommunikativ vaziyatda bo'lib o'tadi. Aynan shu so'zlovchini u yoki bu nutqiy aktga undaydi. Kommunikativ jarayonni murakkab ko'rinishdagi «aloqaning tashqi shartlari va muloqotchilarninng nutqi ko'rinishi - fikr ifodalashi, diskursning ichki tuzilishi» sifatida belgilash mumkin[47]. Kommunikantlarning aloqa vaziyatidagi o'zaro ta'siri bir necha bosqichda sodir bo'ladi: aloqa o'rnatish, mavzu rivojlanishi va dialogni qo'llash va uni tugatish. Xabar joyi va vaqti, adresant, adresat hamda ularning maqsadlari kommunikativ vaziyat komponentlari hisoblanadi. Adresantning adresatga ma'lumot beruvchi sifatida pragmatik yo'naltirilishi adresat (qabul qiluvchi)ni til vositalarining u yoki bu ko'rinishini tanlash bilan qurollantiradi.

Ko'rinadiki, kommunikatsiya doirasida so'zlovchining ma'lum bir nutqiy vaziyatda o'z kommunikativ maqsadiga turli usul va vositalar orqali erishishi murakkab jarayon bo'lib, unda ishtirok etuvchi komponentlar yaxlitligi diskurs strukturasini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Diskurs tuzilishining asosiy komponentlari qaysilar?
2. Presuppozitsiya hodisasini izohlang.
3. Kommunikativ maqsadning ifodalanish usullarini izohlang.
4. Nutqiy strategiya va taktika deganda nimani tushunasiz?
5. Nutqiy vaziyatning diskurs strukturasida tutgan o'rnini belgilang.

---

[47]Формановская Н. И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. – М., 2002. – С.42.

KOMMUNIKATIV MAQSAD VA BAHO

Reja:

1. Kommunikativ intensiya (maqsad, mo'ljal, niyat) tushunchasi va uning mohiyati.
2. Kommunikativ intensiya va baho munosabati.
3. Nutq maqsadi va pragmatik ta'sir.

Tayanch so'z va iboralar: *kommunikatsiya, kommunikativ maqsad, intensiya, baho, pragmatik ta'sir, motiv, ichki nutq, nutqiy vaziyat, kommunikativ layoqat, nutq samarasi, simptomatik jarayon.*

Inson nutqiy faoliyati, uning voqelikka munosabati tufayli yuzaga keladigan fikr ifodalash jarayoni bilan aloqador bo'lgan umumnazariy masalalar doimo ilm-fan ahlini qiziqtirib kelgan. «Zamonaviy o'zbek tilshunosligida nutq subyektining tildan foydalanish faoliyati bilan bog'liq muammolarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi quvonarli. Ayniqsa, pragmatika va kognitiv yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar til birliklarining kontekst, nutq vaziyati, muloqot egalari kabi omillar bilan bog'liq xususiyatlariga aniqlik kiritmoqda»[48].

Inson olamni aql idroki va cyezgilari yordamida o'zlashtirar ekan, yangidan-yangi ma'lumotlar hisobiga o'z bilimlarini tobora oshira boradi. U voqelik faktlariga o'zining munosabatini bildirishi va baholashida tildan eng muhim aloqa vositasi sifatida foydalanadi. So'zlovchi til vositasida adresatni ma'lum bir yangiliklardan xabardor qiladi, undan nima haqdadir so'raydi, qandaydir harakatni bajarishga

[48] Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Ўзбек мулоқот матнининг дейктик бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 6-сон, 32-36-бетлар.

undaydi yoki ichki kechinmalari, ruhiy holati, his-tuyg'ularini ifodalaydi, shuningdek, narsalarning belgi-xususiyati, kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatiga baho beradi.

O'rta asrlarda kommunikativ **intensiya** falsafiy tushuncha sifatida paydo bo'lib, maqsad, niyat, mo'ljal ma'nolarini anglatgan[49]. Bilamizki, fanning turli sohalarida tilning xabar, ta'sir etish kabi ijtimoiiy vazifalari so'zlovchining kommunikativ maqsadi sifatida namoyon bo'lishi turlicha kechadi. Masalan, psixologiyada intensiya subyekt ongida fikr ifodalash maqsadi tug'ilishining dastlabki davri sifatida tushuniladi.Undan keyin esa motiv, ichki nutq va uning voqelanishi sodir bo'ladi. Mazkur jarayonning shakllanishi bir qator kognitiv bosqichlarda namoyon bo'ladi. Soddaroq qilib aytganda, bu inson faoliyatida quyidagi tartibda kechadi. Avvalo, insonda so'zlovchi shaxs sifatida voqelik faktlariga (obyektga xos bo'lgan u yoki bu xususiyatlar)qiziqish paydo bo'ladi. Buni simptomatik jarayonning inson ongida kechuvchi dastlabki bosqichi deyish mumkin. Bu o'z navbatida ongda kechuvchi ikkinchi bosqichga, ya'ni insonda ma'lum bir his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yo'l ochadi. His-tuyg'ular asosida turli emotsional munosabatlar shakllanadi. Keyingi bosqichda inson o'zi to'plagan ma'lumotlarni umumlashtiradi va unga o'z his-tuyg'ulari asosida yuzaga kelgan munosabatini ham qo'shadi. Natijada baho yuzaga keladi. Fikr ifodalash ehtiyoji so'zlovchida kommunikativ intensiyani shakllantiradi. Bundan keyingi jarayon lisoniy birliklar ishtirokida kechadi, ya'ni ongda shakllanib ulgurgan fikrlar nutqqa ko'chadi. Shunisi xarakterliki, til birliklari ishtirokiga qadar bo'lgan jarayon birgina subyekt bilan bog'liq bo'lib, u faqat birgina shaxs ongidagina yuz beradi. Qachonki munosabat tilga ko'char ekan, endi u boshqacha xususiyat kasb etadi.

---

[49]Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008, -С.523.

Lingvistikada intensiya nutqiy mo'ljal, fikr ifodalash maqsadi va ular yordamida so'zlovchi erishishi mumkin bo'lgan istalgan natija sifatida tushuniladi. Intensiya tushunchasi ilmiy atama sifatida fan olamiga nutqiy aktlar nazariyasi ijodkorlaridan biri bo'lib tanilgan tadqiqotchi Dj... Ostin tomonidan kiritilgan edi.

Intensiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, fikr ifodalanishining voqelanishiga qadar strategik mo'ljal sifatida paydo bo'ladi va shakllanadi. So'zlovchi ongida ma'lum bir reja, ko'zlangan natija xarakteri bilan bog'liq bo'lgan nutqiy harakat dasturi tug'iladi. So'zlovchi o'z mo'ljali xarakteridan kelib chiqib lisoniy birliklarni tanlab oladi. U o'z fikrlarining nutq qaratilgan shaxsga tushunarli bo'lishini va muloqot samaradorligini ta'minlash uchun o'rni bilan boshqalarning ham mavzuga daxldor fikrlaridan foydalanadi. Bu yerda kommunikativ layoqat muhim ahamiyatga ega. Aynan u va tildan foydalanish mahorati ko'zlangan maqsadga erishtiruvchi lisoniy vositalarning ahamiyatini to'g'ri anglashni ta'minlaydi.

Kommunikativ maqsad pragmatik tahlilning asosiy tarkibiy qismidir. Maqsadning samarali yoki samarasiz natijasi – so'zlovchining nutqiy aktlardan, shuningdek, tilning ekspressiv-stilistik va obrazli imkoniyatlaridan foydalanish layoqati hamda noverbal yordamchi vositalarni tanlash mahorati bilan bog'liq.

Kommunikativ maqsadning amalga oshishida nutqiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ maqsadga erishish uchun so'zlovchi o'z jumlasini shunday tuzishi lozimki, u uchun eng muhim bo'lgan xabarni ta'kidlash birinchi navbatda turishi lozim. Shunga ko'ra so'zlovchi hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo'zg'atadi, ya'ni unga ta'sir o'tkazadi.

Baholash kategoriyasiga oid so'zlarning kommunikativ vazifalaridan biri – ularning ta'sir etishga funksional xoslanganligi bilan belgilanadi. Baholovchi lisoniy

birliklarning murakkab tabiati muloqot nazariyasiga pragmatikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qarashni talab qiladi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo'nalish bilan bog'lanadi. Tilni doimo taraqqiyotda bo'lgan tizim sifatida o'rganish nutqiy faoliyatning so'zlovchi maqsadi, perlokutiv samara, muloqot ishtirokchilari orasidagi o'zaro munosabat kabi bir qator pragmatik o'lchovlariga bog'liq. Ushbu bog'liqlikni adresant va adresat, so'zlovchi va tinglovchi, nutqiy vaziyat va matnning o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan holatlarda sezish mumkin. Quyida Tilovoldi Jo'rayevning «Bozor dunyo» romanidan olingan parchaga e'tibor qarataylik:

Nabi Musayevich bildiki, o'g'li ko'p narsaga benishon urdi, ammo u bitta gapni chetlab o'tdi, endi shu masalani o'rtaga tashlash fursati yetdi:

Birovni qizini yo'ldan urmagandirsan, to'g'ri aytasan, biroq ***birovning xotinini, ikki go'dagi bor ayolni ajratib, xotin qilib olaverasanmi?*** *Bu – bir, – "bir"ga urg'u berdi Nabi Musayevich. – Ikkinchi, xotining bilan "dagavor" nima edi?*

Mansur miq etmadi, Nabi Musayevich "girboningdan tutdimmi" deganday jonlandi va avj pardalariga ko'tarila bordi:

– Hoji bo'laturib, birovning juft halolini, yanada norasida bolalarini yum yig'latib... Ayt-chi, qaysi dinda bor bu? Nasroniydami yoki buddizmdami? Menga qara bola... Bu yo'lingdan qayt?!

Sening tepadagi nutqingga uch ham qo'yib bo'lmaydi. ***Be'mani gaplar barisi... esing borida etagingni yop. Ertaga sharmanda-yu sharmisor bo'lasan!***

... Nabi Musayevich endi tamoman yiqitish, majaqlash usuliga – beparda gaplarga o'tdi:

- Hoy, bola, aqlingni yig'. Bo'lar ish bo'ldi, tug'sa, tug'ib bersin, ammo halol to'shagingni harom qilma. Bo'pti, nikohdan tug'ilar ekan, ol o'sha bolani, boq, tarbiya qil,

Xudoning aytgani bo'ladi, o'ssin, vafo qilsin. Shuni bilib qo'yki, biyadan tulpor, eshakdan xo'tik tug'iladi. *(78-bet)*

Yuqoridagi diskursda baholanuvchi xatti-harakatining tanbehga loyiqligi tufayli uni bu yo'ldan qaytarish so'zlovchining kommunikativ maqsadi hisoblanadi. So'zlovchi o'z maqsadi natijasining samarali bo'lishi uchun turli ifoda usullaridan (strategiyalardan) foydalanadi. Buning uchun u tinglovchiga milliy urf- odatlarimizga xos bo'lgan axloqiy mezonlarni eslatish maqsadida "*birovning xotinini, ikki go'dagi bor ayolni ajratib, xotin qilib olaverasanmi?*", "*xotining bilan "dagavor" nima edi?*" "*Hoji bo'laturib, birovning juft halolini, yanada norasida bolalarini yum yig'latib... Ayt-chi, qaysi dinda bor bu?*" kabi so'roq mazmunidagi jumlalardan foydalanib, yashirin tanbeh propozitsiyasini yuzaga chiqaradi va tinglovchiga psixologik ta'sir etish taktikasini qo'llaydi. Shuningdek, so'zlovchi kommunikativ maqsadi samarali bo'lishi uchun "*Menga qara bola... Bu yo'lingdan qayt?!*", "*...esing borida etagingni yop. Ertaga sharmanda-yu sharmisor bo'lasan!*" kabi propozitsiyalar hamda "*Hoy, bola, aqlingni yig'. Bo'lar ish bo'ldi, tug'sa, tug'ib bersin, ammo halol to'shagingni harom qilma. Bo'pti, nikohdan tug'ilar ekan, ol o'sha bolani, boq, tarbiya qil, Xudoning aytgani bo'ladi, o'ssin, vafo qilsin. Shuni bilib qo'yki, biyadan tulpor, eshakdan xo'tik tug'iladi*" kabi affektiv jumla-gaplar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ham ma'lum bo'ladiki, til aloqa jarayonida ma'lum bir maqsadga xizmat qiladi. «Til o'z-o'zicha emas, balki konkret fikr, aniq nutqiy imkoniyatning individual faoliyat bilan birikuvda mavjuddir. Faqat fikr-jumla orqali til muloqot bilan birikadi, uning jonli kuchlaridan bahramand bo'lib, reallikka aylanadi. So'zlashuv muloqoti shart-sharoitlari, shakllari, differensiasiya usullari davrning ijtimoiy – iqtisodiy shartlari bilan belgilanadi»[50].

[50] Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества .- М., 1979.-С.121.

Muayyan nutqiy vaziyatda so'zlovchi ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlab, hamsuhbatiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Kommunikativ maqsad, shuningdek, so'zlovchining subyektiv munosabati, aloqaning ta'minlanishi, nutqiy vaziyatning o'zi ham lisoniy vositalarning tanlanishiga, muloqot mavzusi va shakliga doimo ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi ko'zlangan natijaga erishish uchun qat'iy harakat usullariga rioya qilishi lozim. Shunda kommunikativ maqsadga ko'ra tanlangan lisoniy birliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnni tushunish yoki matnning pragmatik ma'nosiga yetib borish bir vaqtning o'zida undan anglashilgan xabarni turli nuqtai nazardan ko'rib, o'rganib chiqish va baholashdan, matnning strukturaviy va pragmatik rejalarini tahlil etishdan iboratdir. Kommunikativ maqsad va u tufayli yuzaga keladigan nutq obyektiga munosabat natijasi sifatida namoyon bo'ladigan baho tushunchasi shaxsning qadriyatli ifodasi bo'lib, alohida pragmatik mazmunga egadir.

Xulosa qilib aytganda, so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishi uchun nutqiy strategiyani tuzish va taktikani qo'llashda, so'zlovchi fikrlarining ta'sirchanligini oshirishda baholovchi so'zlar muhim pragmatik vosita hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kommunikativ intensiya tushunchasini izohlang.
2. Baholash tushunchasi va uning pragmatik tadqiqotlardagi o'rnini qanday tushunasiz?
3. Kommunikativ intensiya va baho munosabatini izohlang.
4. Pragmatik ta'sirning kommunikatsiya jarayonidagi o'rnini belgilang.

KOMMUNIKATIV STRATEGIYA VA TAKTIKA

Reja:

1. Kommunikativ strategiya va taktika tushunchalari haqida.
2. Kommunikativ maqsad va kommunikativ strategiya.
3. Kommunikativ strategiya va muloqot vaziyati.

Tayanch so'z va iboralar: *kommunikativ strategiya va taktika, prgmatik imkoniyat, nutqiy akt, pragmatik samara, pragmatik vazifa, nutq modeli, nutqiy qobiliyat.*

Olam manzarasi, voqelik faktlarini shunchaki anglashgina emas, balki ularni turli nuqtai nazaridan baholash, fazilat va nuqsonlarini aniqlash insonga xosdir. Baholash xarakteri insonning ijtimoiy turmush tarzi, jismoniy va ruhiy holati bilan belgilanadi hamda tafakkuri va faoliyatini, kishilarga, voqelik predmetlariga munosabatini, san'atni idrok etishini belgilab beradi. Madomiki, bir qator kommunikativ strategiya va taktikalarni qo'llashda baholovchi lisoniy birliklar so'zlovchi fikrlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilsa, bunday vositalarning pragmatik imkoniyatlari haqida bemalol gapirish mumkin. Kommunikativ maqsadning samarali bo'lishida esa nutqiy strategiya va taktika ham muhim hisoblanadi.

Kommunikativ strategiya – so'zlovchi yoki yozuvchining bosqichma-bosqichli nutqiy harakati tizimi, kommunikativ maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida ifoda va muomala usullarini ongli ravishda tanlashning umumiy dasturidir. Kommunikativ taktika deyilganda esa nutqiy strategiya hosil bo'lishi jarayonidagi aniq nutqiy yo'l (qadam, burilish, davr); nutqiy strategiyalarni u yoki bu bosqichda amalga oshirishga muvofiq keluvchi va shu bosqichning

xususiy kommunikativ vazifalarini yechishga yo'naltirilgan nutqiy harakat (nutqiy akt yoki bir necha nutqiy aktning jamlanmasi)[51] tushuniladi.

Co'zlovchi muayyan kommunikativ vaziyatda, ma'lum bir maqsadda hamsuhbatiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Nazarda tutilgan kommunikativ maqsad, shuningdek munosabat, o'sha vaqtdagi nutqiy vaziyat lisoniy vositalarni tanlashga, muloqotning mavzusi va shakliga ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi yuqori darajada natijaga erishish uchun qat'iy kommunikativ strategiyaga rioya qilishi lozim. Shunda tanlangan lisoniy vositalar juda muhim pragmatik ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, fikr nutqning u yoki bu ko'rinishida tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazilgunga qadar so'zlovchi yoki yozuvchi ongida strategik mo'ljal sifatida hosil bo'ladi va shakllanadi. So'zlovchi ongida o'zaro muloqotda erishish ko'zda tutilgan natija xarakteri bilan bog'liq bo'lgan nutqiy harakat dasturi tug'iladi. So'zlovchi unga asosan o'z maqsadiga erishish uchun nutqiy vaziyatga mos bo'lgan lisoniy birliklarni tanlab oladi. Bu yerda kommunikativ layoqat muhim o'rin tutadi. Aynan u va tildan foydalanish mahorati ko'zda tutilgan maqsadga erishtiruvchi lisoniy vositalarning ahamiyatini to'g'ri anglashni ta'minlaydi. Nutqiy aktning voqelanishida kommunikantlarning ruhiy holati, oilaviy yaqinligi, yoshi kabi bir qator jihatlar ham muhim o'rin tutadi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo'nalish bilan bog'lanadi. Suhbat ishtirokchilarining o'zaro munosabatidan kelib chiqib ifoda propozitsiyasi shakllantiriladi.

So'zlovchi o'z kommunikativ maqsadining qandayligiga ko'ra ifoda uslubini tanlaydi va nutq jarayonida shunga xos so'z va jumlalarni qo'llaydi.

---

[51] Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. -Екатеринбург, 1999. -С. 16.

Fikrimiz isboti uchun quyidagi diskurs tahliliga e'tiborimizni qaratamiz:

– Fuqaro Madaminov, – dedi prokuror keyingi so'roqda. Shoahmedova o'ldirilgan kunda chindan ham mehmonxonada tunagansiz. Mehmonxona darboni bilan qavat bekasi bu haqda ko'rgazma berdi. Biroq, bu holat sizni to'la–to'kis oqlash imkonini bermaydi. Chunki, har ikkalovining ham ko'zini shamg'alat qilgan holda yashirincha mehmonxonadan chiqib, do'konga borib, Shoahmedovani o'ldirib, yana joyingizga qaytish uchun sizda imkon bo'lgan. Siz jinoyatingizni yashirish maqsadida mehmonxonada tunashdan dalil sifatida foydalangan bo'lishingiz mumkin... (Alisher Ibodinov. Latofat do'konidagi qotillik).

Keltirilgan parchada muloqot ishtirokchilari ikki kishi. Ya'ni, prokuror Odilov va gumondor Ahrorjon Madaminov. Suhbat mavzusi qotillik to'g'risida. Bu yerda nutqiy vaziyat va suhbat mavzusidan kelib chiqib fikrlarni yashirin ifodalashga, emotsional, ekspressiv so'zlarni qo'llashga ehtiyoj sezilmaydi. Muloqot jarayonida prokuror mavqeyi baland bo'lib, uning kommunikativ maqsadi Ahrorjonning aybdor yoki aybsiz ekanligini isbotlash hisoblanadi. Shuning uchun suhbat boshlanishidayoq u o'z fikrlarini eksplitsit tarzda ifodalaydi va fikrlarining to'g'ri va asosli ekanligini dalillovchi xabar mazmunidagi gaplardan foydalanadi. Suhbatning keyingi bosqichida esa u o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun fikr ifodalashning boshqa shaklini tanlaydi. Endi uning gaplari undash xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi:

Menga qara uka, – dedi to'satdan Odilov Ahrorjonni sensirab, – balki sen qilmagansan bu ishni. Biroq, seni to'la oqlab, bu yerdan chiqarib yuborish uchun haqiqiy qotilni topish, hyech bo'lmaganda jinoyatchi emasligingga tergovda qat'iy ishonch hosil bo'lishi kerak. Shoahmedovani o'ldirgan qotilni jinoyatga nima undagan? Tergov avvalo, ana shu kimsani aniqlab olishi kerak. Zero, jinoyatning mohiyatini tushunmasdan turib, ish olib olib borish uyda paypaslanib

kalitni qidirganday gap. Shoahmedova hayotda nima bilan shug'ullangan? Faqat tijorat bilanmi? Uning kimlar bilan aloqasi bor edi? Shular haqida batafsil gapirib berishing ishingni yengillashtiradi, Buni tushun... (Alisher Ibodinov. Latofat do'konidagi qotillik).

Dastlabki parchada qo'llanilgan gaplar nutq qaratilgan shaxsning xatti - harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat. Prokuror mazkur ma'lumotlarni tinglovchi - Ahrorjonga yetkazish orqali uni asosiy fikrlarni eshitishga ruhan tayyorlamoqda va bu bilan yangi nutq vaziyatiga yo'l ochmoqda. Keyingi parchada esa nutqiy jarayonning ikkinchi bosqichi o'z ifodasini topgan. Parchada prokurorning ma'lumot berish bilan cheklanmay, tinglovchi ruhiyatiga ta'sir etish uslubini tanlagani kuzatiladi. Matndagi uning Ahrorjonni senlashini ham haqorat deb emas, balki o'ziga yaqin tutishning, tinglovchi ishonchiga kirishning bir taktik usuli sifatida qarash mumkin. Parchada qo'llanilgan so'roq gaplarning ko'pligi tinglovchini o'ylashga, munosabat bildirishga undash uchun xizmat qilgan, deyish mumkin.

Ko'rinadiki, kommunikativ maqsadga erishish uchun so'zlovchi o'z fikrlarini shunday ifodalaydiki, u uchun eng muhim bo'lgan ma'lumotni ta'kidlash birinchi navbatda turadi. Shu bilan u hamsuhbatida kutilgan reaksiyani qo'zg'atib, unga ta'sir o'tkazadi. Shu munosabat bilan ta'sirning quyidagi ko'rinishlarini: hamsuhbatning xabardorligi kengayishini; uning emotsional holatidagi, nuqtai nazarlari va baholashdagi o'zgarishlarni; u bajargan harakatlarga ta'siri, illokutiv samarani qayd qilish mumkin. Yuqoridagi matnda tanbeh va undash propozitsiyasi bir qator nutqiy jarayonlarni qamrab olgan:

- eslatish, ogohlantirish: *Shoahmedovani o'ldirib, yana joyingizga qaytish uchun sizda imkon bo'lgan.*
- gumon, ishonchga kirish: "*balki sen qilmagansan bu ishni*";

- aniqlik kiritish: "*Tergov avvalo, ana shu kimsani aniqlab olishi kerak.*"

- undash, maslahat: "*Shular haqida batafsil gapirib berishing ishingni yengillashtiradi, Buni tushun...* ".

Yuqoridagi sintaktik birliklarda bayon qilingan ma'nolar umumlashib, so'zlovchi kommunikativ maqsadining, ya'ni tinglovchining o'z aybiga iqror bo'lishiga erishishni ta'minlashga xizmat qilgan.

Ma'lumki, til inson faoliyatining hamma sohasiga birday aloqador bo'lib, nutqiy strategiya va taktikalar turli insoniy munosabatlarda birday amal qiladi. Misol tariqasida insonning savdo faoliyatini kuzatsak, nutqiy strategiya va taktika bog'liqligi quyidagicha namoyon bo'ladi:



Umuman, baholash va pragmatika munosabatini tadqiq etish o'zbek tilshunosligida shaxsning ichki ma'naviy

qiyofasi bilan aloqador holatlarni uning nutqi asosida tahlil qilishning o'ziga xos imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kommunikativ strategiya va taktika tushunchalarini izohlang.
2. Kommunikativ maqsad va kommunikativ strategiya orasida qanday bog'liqlik bor?
3. Kommunikativ strategiya va taktikaning farqini tushuntiring.
4. Kommunikativ strategiyaning muloqot vaziyatiga bog'liqligini qanday tushunasiz?
5. Kommunikativ strategiya va taktika tilshunoslikdan tashqari yana qanday sohalarda qo'llaniladi?

NUTQ VAZIYATI

Reja

1. Nutq vaziyati tushunchasi.
2. Nutqiy muloqot komponentlari.
3. Nutqiy muloqotning voqelanish shart-sharoitlari.

Tayanch so'z va iboralar: *nutq vaziyati, kommunikant, nutqiy etiket, etiket vositalari, adminstrativ faoliyat, eksplitsit, implitsit, verbal va noverbal vositalar.*

Nutqiy vaziyat lingvopragmatikaning tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Muloqotning ichki va tashqi sharoitlari, muloqot ishtirokchilari, ularning munosabatlari nutqiy vaziyatning asosiy komponentlari hisoblanadi. Bu komponentlar kommunikativ jarayonda ishtirok etish funksiyasiga ko'ra nutq vaziyatining o'ziga xos tuzilishini shakllantiradi.

Nutqiy vaziyatning umumiy sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Keltirilgan sxemada qayd etilgan omillardan tashqari o'zaro muloqotning asosiy xususiyatlari va muloqotchilarning nutq etiketini ko'rsatuvchi tanishligi darajasi, ishtirokchilarning bir-biridan farqlanish darajasi, kuzatuvchilarning mavjudligi kabi omillarni ham ko'rsatish mumkin. Bu omillar muloqotning samaradorlik darajasini, nutqiy vaziyatni hosil qiluvchi asosiy xususiyatlarni belgilab beradi. Ma'lumki, muloqot tushunchasi inson faoliyatining hamma qirralari bilan aloqador. Insoniy munosabatlarning deyarli hammasi inson nutqiy faoliyati bilan bog'lanadi. O'zaro aloqalar qanday shaklda va ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro fikr almashishlar, mavzu mohiyati, muammolari va kelajagi haqidagi ma'lumotlar til vositasida tinglovchi yoki o'quvchiga yetkaziladi. Shunday ekan, nutqiy muloqotdan har ikki taraf ham birday manfaatdor. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqiy muloqot tashkilotchisi sifatida ma'lum bir kommunikativ maqsadni amalga oshirishni, ko'zlangan pragmatik samaraga erishishni ilgaridan mo'ljallaydi. Maqsadning so'zlovchi maqsadiga mos holda amalga oshishi va yakun topishi to'g'ridan to'g'ri muloqotning voqelanish jarayoniga bog'liq. Shuning uchun ham inson nutqiy faoliyatidan bahs yurituvchi tadqiqotlarda nutq vaziyati tushunchasi pragmatikaning asosini tashkil qiluvchi komponentlardan biri sifatida talqin qilinadi. Kommunikativ vaziyat deyilganda nutq tashqi sharoitining muloqot xulqi, fikr, diskursda ifodalangan murakkab jamlanmasi tushiniladi. Nutq faoliyati va vaziyat o'zaro bog'liq ekan, ko'zlangan maqsadning amalga oshishi so'zlovchi imkoniyatlari va nutq qaratilgan shaxsning nutqni o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi. Nutqiy harakat so'zlovchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan fikr ifodalashga tayyorgarlik, fikrning tuzilishi, tashqi nutqqa o'tish kabi bosqichlardan so'ng voqelanadi. Bunda nutq qaratilgan shaxsning muloqot jarayonidagi o'rni, nutqni o'zlashtirishni ifodalovchi akustik/grafik koddan ichki nutqqa o'tish, sintaktik struktura, grammatik shakllarni topish

(rasshifrovka qilish), fikr ifodalashning umumiy rejasini, ma'nolar va motivlarni tushunish, olingan xabarni baholash, lisoniy vositalar tanlash kabi vazifalarning amalga oshishiga qarab belgilanadi.

Kommunikativ vaziyat asosini bevosita aloqa tushunchasi tashkil qilar ekan, unda ishtirok etuvchi vositalar quyidagi vazifalarga funksional yo'naltiriladi:

- Aloqa bog'lash – kommunikatsiyaning fatik vositalari.
- Aloqani saqlab turish – muallif va adresatga xos vositalar.
- Aloqani yakunlash – suhbatni tugatish vositalari.

Kommunikativ vaziyatni yuzaga keltiruvchi tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat:

- xabar joyi va vaqti;
- xabarning ma'lum nutqiy va axloqiy majburiyatga ega bo'lgan adresanti;
- ma'lum presuppozitiv fikr ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan adresat;
- xabarning maqsadli yo'naltirilgan mavzusi.

Vaziyatning umumiy xarakteri, lisoniy va nolisoniy omillar ishtirokidan kelib chiqib, nutqiy muloqot quyidagi tartibda voqelanadi:



Yuqorida keltirilgan sxema nutqiy vaziyatning hamma ko'rinishlariga birday taalluqli. Muloqot jarayoni inson faoliyatining qaysi sohasida yuz berayotganiga ko'ra unda ishtirok etuvchi omillar va vositalar o'zaro farq qiladi. Masalan, kishilarning hayotning maishiy tomonlari bilan bog'liq kundalik norasmiy muloqotlarida so'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar yetakchilik qiladi va ularda shunga xos nutqiy vaziyat mavjud bo'ladi. Shu o'rinda shuni ham yodda tutish lozimki, nazarda tutilmagan sabablarga ko'ra nutq vaziyati o'zgarib ketishi ham mumkin. Buning aksi bo'lgan rasmiy muloqotlardagi nutqiy vaziyat yuqoridagidan tubdan farq qiladi. Chunki, ularda nutqning qay tartibda va qanday vaziyatda amalga oshishi ilgaridan rejalashtirilgan bo'ladi. Muloqotning boshlanishidan yakunlanishiga qadar shu tartibga qat'iy amal qilinadi. Shuning uchun rasmiy muloqotlardagi nutq vaziyati bir muncha barqarorligi bilan ajralib turadi. Rasmiylik xizmat yuzasidan bo'ladigan uchrashuvlarda doimo sezilib turadi. Unda so'zlovchi o'zi faoliyat ko'rsatadigan uyushma, tashkilot, firma nomidan gapiradi. Uning «Men»i bevosita o'zi ishlayotgan joy bilan bog'liq bo'ladi va bunday rasmiy muloqotlar xizmat joylarida – qabulxona, majlislar zali, ofislarda bo'lib o'tadi.

Rasmiy muloqot quyidagi me'yorlarning bo'lishini talab etadi:

- ikki tomonlama muloqotchilar guruhiga nisbatan «Siz» hurmatlash munosabatining o'rnatilishini;
- muloqotda etiket qoidalariga qat'iy amal qilishni (salomlashish va xayrlashishda);
- samimiylik ifodalovchi «marhamat qilib», «iltifot qilib» kabi birikmalarni qo'llashni;
- muloqotning rasmiy sharoiti nutq jarayonida turli xil jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos birliklarni va dialektizmlarni qo'llamaslikni taqozo etadi.

O'zaro rasmiy muloqotlarda o'ta darajada muloyimlik, o'zini tutish, samimiylik talab etiladi. Rasmiy bo'lmagan yubileylarda, xizmat yuzasidan bo'ladigan uchrashuvlarda, ofislarda, uy sharoitida, restoranlarda yoki xizmat jamoasida bo'ladigan uchrashuvlarda esa bu muloqotning o'ziga xos nozik qirralari namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda muloqot ishtirokchilari o'zlarini birmuncha erkin sezadilar, bu erkinlik til birliklarini tanlashda va qo'llashda ham seziladi. Bunda so'zlovchining fikr ifodalashida subyektiv munosabat ham ma'lum darajada sezilib turadi. Bunday muloqotda:

- hamsuhbatning yoshi va ijtimoiy sharoiti, tanishlik darajasidan kelib chiqib «Sen» yoki «Siz» tanlanadi;
- salomlashish va xayrlashishda qo'llaniladigan so'zlardan foydalaniladi;
- Nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, etiketni ifodalovchi birliklar qo'llanilishi mumkin;

Muloqotchilarning o'zaro bir-birini tanishi norasmiy sharoitlarda belgilovchi omil hisoblanadi. Notanish yoki kam tanish bo'lgan kishilar bilan suhbat norasmiy muloqotda etiket xarakteri bilan bog'lanadi. Hatto notanish odam (mijoz, kliyent) ishtiroki ham u bilan bir xonada bo'lgan kishidan rasmiy muloqot qoidalariga amal qilishni talab qiladi.

Xizmat muloqotlarida adresat shaxsi muloqot sharoitiga nisbatan muhim hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchi u bilan qanday munosabatda ekanligiga qarab nutq vaziyatiga mos keluvchi kommunikativ taktika va etiket vositalarini qo'llaydi.

Xizmat muloqotlari xabar qilinayotgan ma'lumotga alohida diqqat qilishnigina emas, balki nutqni idrok qilish jarayonida yuz beruvchi quyidagi fikrlash harakatlarini ham taqozo qiladi:

1) xabar qilinayotgan ma'lumot hajmi nazorati;
2) tushunish nazorati;

3) xulosalash;
4) ta'riflash;
5) pozitsiyani tuzatish.

Bu harakatlarning hammasi bir qator replikalar yordamida amalga oshadi: – *Ha; shunday-shunday; ma'lumki;* – *Agar men sizni to'g'ri tushungan bo'lsam...;* – *Siz nimani nazarda tutayapsiz?;* – *Boshqacha aytganda, siz hisoblaysizki,...?* va boshqalar.

Kommunikativ jarayonda maqsad birligi so'zlovchi va tinglovchini birlashtirib turadi.Xizmat aloqalarida maqsad hamkorlik istiqbolidan kelib chiqib qisqa va uzoq vaqtga mo'ljallangan bo'ladi. Xizmat aloqalarini saqlash, adresatga aniq bir qarorni qabul qilish maqsadida ma'lumot yetkazish va ta'sir qilish – muloqot doirasi va boshqaruvida adresatning asosiy maqsadi ko'rinishlaridandir. Xizmat aloqalari, xizmat munosabatlari faqat o'zaro ijobiy emotsiyalar – ishonch, hamdardlik, tilak, hurmat kabilar asosida saqlanishi mumkin. Shu maqsadda adresatga tabriknoma, ta'ziyanoma, tantanaga taklif, minnatdorchilik xati kabilar yuboriladi.

Xabarnoma, qo'ng'iroq, faks jo'natmalari, mahsulot namunalari, hisobotlar maqsadning ikkinchi tipini – adresatni ishning ahvoli, kelishuvning sharoiti va imkoniyatlari bilan tanishtirishni ta'minlaydi.

Yo'riqnoma, qoida, buyruq, farmoyish, talabnoma, iltimos kabilar og'zaki yoki yozma shaklda bo'lsa-da, adresatga ta'sir qilish, uni u yoki bu harakatga undash vazifasini bajaradi. Ayrim hollarda qayd etilgan maqsadlar bir matn doirasida, masalan, iltimos xatida ishning ahvoli bilan tanishtirishdan boshlanib, iltimos bilan tugashida ko'rinishi mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan holatlar o'ta murakkab hisoblangan kommunikativ jarayonda so'zlovchi maqsadining amalga oshishi bevosita nutq vaziyatiga bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Nutq vaziyati har qanday muloqot xarakteri va natijasini belgilab beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nutq vaziyati tushunchasini ihohlang.
2. Kommunikativ jarayonda nutq vaziyati qanday o'rin tutadi?
3. Nutq vaziyati qanday tarkibiy qismlardan tarkib topgan?
4. Nutq vaziyati modelini qanday tushunasiz?
5. Rasmiy muloqotda nutqning qanday me'yorlari amal qiladi?

NUTQDA SHAXS OMILI

Reja:

1. Nutq faoliyati va lisoniy shaxs .
2. Lisoniy shaxs va kommunikativ shaxsning o'zaro munosabati.
3. Tilning voqelanishida inson omilini aniqlashga turli yondashuvlar.

Tayanch so'z va iboralar: *nutq faoliyati, lisoniy shaxs, kommunikativ shaxs, so'zlovchi shaxs, lisoniy shaxs strukturasi, kommunikativ shaxs strukturasi.*

Til kommunikatsiya jarayonida o'zining ijtimoiy vazifalarini to'lasincha namoyon etadi. U nafaqat aloqa, fikr ifodalash va yetkazish, ta'sir etish, balki konseptual olam manazarasiga oid ma'naviy bilimlarni to'plash va saqlash, obyektiv voqelikni idrok qilish vositasi ham hisoblanadi. Inson o'zi mansub bo'lgan tilninggina emas, balki bir vaqtning o'zida ma'lum milliy – madaniy mentallik va voqelikni idrok qilishning individual usuli sohibi hamdir. Tilda insonning mental, ichki dunyosi, aqliy saviyasi, lisoniy shaxs namoyon bo'lishi ham o'z aksini topadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, o'y-kechinmalari, orzu-umidlarini ifodalashda til birliklarining rolini antroposentrik yo'nalishda tadqiq etishga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslik uchun inson omili va xususan, muayyan «lisoniy shaxs» masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Lisoniy shaxs bu – «nutq egasi bo'lib, nutqiy harakatni sodir etish, nutqni tuzish va qabul qilish uchun tayyorligi

nuqtai nazaridan qaraladigan kishi, u lisoniy tizimdan to'lig'icha foydalanish layoqatiga ega bo'lgan shaxs»[52].

Inson «so'zlovchi shaxs» sifatida voqelik bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan, turli voqea-hodisa, harakat-holat va predmetlarning belgi-xususiyatlarini anglash va aniqlash bilan chegaralanib qolmaydi, balki ularni o'zining jamiyatda egallab turgan mavqeyi, ehtiyojlari, o'z kommunikativ maqsadi va nutqiy sharoitdan kelib chiqib baholaydi. Bunda u jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan qoida va mezonlarga tayanadi. Inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo'lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar markazida turadi. U obyektiv olamda yuz beruvchi turli voqea-hodisalar, harakatlardan ma'lum darajada ta'sirlanadi va o'z navbatida ularga munosabat ham bildiradi.

O'tgan asrning oxirlariga kelib nafaqat tilshunoslikda, balki inson nutqiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalarda ham shaxs omilining kommunikatsiya jarayonida tutgan o'rnini aniqlashga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi va bu masala mazkur fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy muloqotda inson omili muhim ekanligini ta'kidlab, «Nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o'ynaydi va bu faktor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelantirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi amallarini boshqaruvchi ko'rsatkichlardan biridir»[53] degan xulosaga keladi.

Nutq faoliyatida shaxsning tutgan o'rni haqida bahs yurituvchi bu fanlar doirasida inson omilining turlicha nomlanishi tufayli tadqiqotlarda «lisoniy shaxs», «kommunikativ shaxs», «so'zlovchi shaxs», «til shaxsi» kabi atamalar faol qo'llanilmoqda. Bu atamalar umumiy tarzda shaxs tushunchasini ifodalasa-da, u yoki bu xususiyati bilan

---

[52] Кубиц Г.В. Профессионализация языковой личности (на примере юридического дискурса): дис. ... канд. филол. наук. - Челябинск, 2005. – 258 с.

[53] Сафаров Ш. Прагмалингвистика.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. -Б.153.

farqlanib turadi. O. L. Ariskina, Ye. A. Dryanginalar bugungi kunda tilshunoslikda bu tushunchaga aloqador bo'lgan uch yondashuv mavjudligini ko'rsatadilar[54]:

1. Lisoniy shaxs tushunchasi kommunikativ shaxs tushunchasidan kengroq ma'noga ega (S. G. Vorkachev, V. V. Sokolova, S. S. Galstyan). Bu nuqtai nazarga ko'ra lisoniy shaxs to'rt ko'rinishga –fikriy, lisoniy, nutqiy, kommunikativ ko'rinishga ega va "superkategoriya" sifatida talqin qilinadi.[55]

2. Lisoniy shaxs va kommunikativ shaxs tushunchalari bir-biridan farq qilmaydi. V.I.Karasikning ta'kidlashicha, lisoniy shaxs muloqot sharoitida kommunikativ shaxs sifatida qaralishi mumkin.[56]

3. Kommunikativ shaxs tushunchasi lisoniy shaxs tushunchasiga nisbatan keng ma'no ifodalaydi. P.Konetskaya kommunikativ shaxs tushunchasi kommunikatsiyaning faqat verbal kodlarini tanlashni emas, balki inson va mashina aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kommunikatsiyaning sun'iy va qorishma kodlari qo'llaniluvchi noverbal kodlar tavsifini ham taqozo etadi.[57]

Tilning ijtimoiy mohiyati shu bilan xarakterlanadiki, u lisoniy ongda – jamoaviy yoki individual ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra tildagi madaniyat egasi lisoniy jamoa yoki individ bo'ladi. Jamoa etnos va individ sifatida lisoniy ongning shartli shkalasida eng chekka nuqtani tashkil qiladi.

Til ongning ajralmas a'zosi hisoblanadi. U inson va dunyo manzarasi o'rtasida ularni lisoniy shakllarda ifodalovchi vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Bu insoning tilda obrazlar va tushunchalar sifatida saqlanib qolgan dunyo manzarasi bilan bog'liqligidir. Alohida olingan shaxsning tili

---

[54] Арискина О. Л., Дрянгина Е. А. Языковая и коммуникативная личность: различные подходы к исследованию // Вестник Челябинского государственного университета. Вып. 58 . Челябинск. 2011. - С. 15–18.

[55] Галстян С. С. Языковая личность – основа телевизионной коммуникации. URL: http://vestnik.ipk.ru/index.php?id=1544.

[56] Карасик В. И. Языковой круг : личность, концепты, дискурс. Волгоград : Перемена, 2002. 477 с.

[57] Конецкая В. П. Социология коммуникации. URL : http://www.i-ru/biblio/archive.

o'z-o'zicha mavjud bo'lmaydi. U bir xalqqa, bir umumiy madaniyat va an'analarga mansub bo'lgan boshqa kishilar tillarida shakllanadi.

Tilshunoslikda lisoniy shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'yicha kuzatishlar olib borgan V.V.Naumov fikriga ko'ra, bu tushuncha ostida nutq faoliyati davomida mazkur davrlar oralig'idagi belgilangan lisoniy jamoani tavsiflaydigan qandaydir til vositalarini qo'llay oladigan til sohibi tushuniladi.[58] Olim o'z tadqiqotlarida lisoniy shaxs tushunchasini ifodalovchi psixoemotiv tashkil qiluvchilar, lisoniy shaxsning ijtimoiy tavsifi, lisoniy shaxsning yoshga oid va gender xususiyatlari, lisoniy shaxsning milliy mansubligi, lisoniy shaxsning nolisoniy xarakteristikasi kabi beshta mezonni mavjudligini ko'rsatib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga intilgan.

So'zlovchining nutqiy vaziyat va o'z nutqi qaratilgan shaxsga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatidan kelib chiqib til birliklarini tanlashi tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum bir narsa-predmet, voqea-hodisa haqida xabar berishdan tashqari o'zi haqida, ya'ni yoshi, jinsi, jamiyatda egallab turgan mavqeyi, ijtimoiy nufuzi, dunyoqarashi to'g'risida ham ma'lumot beradi.

O.B.Sirotinina lisoniy shaxsni tavsiflashda uslubiy nuqtai nazardan yondashadi. U lisoniy shaxsning ichki milliy nutq madaniyatining ma'lum tiplariga ko'ra tasnif qilib, 1) elitar, 2) o'rta adabiy, 3) badiiy-so'zlashuv 4) betakalluf-so'zlashuv 5) oddiy so'zlashuv, 6) xalqchil-nutqiy kabi turlari mavjudligini qayd qiladi.[59]

Tilshunoslikda lisoniy shaxs tuzilishining verbal-semantik, lingvo-kognitiv, pragmatik darajalari mavjudligi qayd etiladi[60]. Matn tuzishda bu darajalar nutq vaziyatini

---

[58] Наумов В.В. Лингвистическая идентификация личности. – М., 2006. – С.240.

[59] Сиротинина О. Б. Языковая личностьи факторы, влияющие на ее становление //Термин и слово: межвуз. сб., посвящ. 80-летию проф. Б. Н. Головина. Н. Новгород, 1997. -С. 7–12.

[60] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. -М.: Наука, 1987. –С.263..

tasniflash layoqati va vaziyat komponentlariga muvofiq kelishi faoliyat doirasi, muloqotchilar pozitsiyasi, muloqot maqsadi orqali amalga oshadi. Yuqorida qayd etilgan pragmatik darajada lisoniy shaxs kommunikativ shaxsga aylanadi.

V.P. Konetskaya kommunikativ shaxs uchun quyidagilar belgilovchi mezonlarni taklif etadi:

1) tuzilishda asosiy o'rin tutuvchi «aynan zaruriy ma'lumotni yetkazish yoki olish ehtiyoji kommunikativ faoliyat uchun kuchli omil bo'lib xizmat qiladi va individning kommunikativ shaxs sifatida shart bo'lgan tavsifi hisoblanuvchi» motivatsion (kommunikativ) ehtiyoj;

2) kognitiv (uning uchun quyidagi tavsiflar muhimdir: mos keluvchi xabarni tushunish layoqati, hamkorga ta'sir qilish layoqati, baho va kognitiv doirada o'z-o'zini baholash va verbal va noverbal kommunikatsiyada ijtimoiy belgilangan me'yorlarni bilish;

3) vazifaviy (o'zida uch asosiy tavsifni qamrab oladi: a) amalda kommunikatsiyaning xabar berish, ta'sir etish va pragmatik vazifasini kuchaytirish uchun xizmat qiluvchi verbal va noverbal vositalarning individual zaxirasiga ega bo'lish; b) muloqot sharoiti vaziyatining o'zgarishi bilan bog'liq holda kommunikatsiya jarayonida kommunikativ vositalarni o'zgartirish layoqati; v) tanlangan kommunikativ yo'l me'yorlari va nutqiy etiket qoidalariga muvofiq keluvchi ifodalar va diskurslarni tuzish)[61].

Ko'rinadiki, til shaxsi tadqiqi insonni turli nuqtai nazardan o'rganuvchi tilshunoslarni birlashtirib turadi. So'zlovchi shaxs munosabatining qay tarzda yuzaga chiqishi uning jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan ma'naviy-axloqiy mezonlarga amal qilishi, o'z sezgilari, didiga tayanishi, go'zallikni qanday idrok qilishi, aqli va his-tuyg'ulariga asoslanishidan kelib chiqadi.

[61] Конецкая, В. П. Социологии коммуникации. URL : http://www.i-ru/biblio/archive.

Lisoniy shaxsning kognitiv jihati – bu insonning olamni til orqali o'zlashtirishidir. So'zlovchi shaxsning kognitiv tavsifi haqida gapirganda tadqiqotchilar olamga odatda jamoaviy konseptosferalar ko'rinishida qaraydilar, lisoniy ifodaga ega bo'lgan tushunchaning freym tahlilini amalga oshiradilar, variativ lisoniy hosilalarning mental asoslarini aniqlaydilar. Mental bilimlar, konseptlar tabiatan turlicha bo'lib, kishining shaxsiy hamda ijtimoiy tajribasiga asoslanadi. Bu bilimlar ko'p o'lchovlidir. Konsept tushunchaga nisbatan keng, agar tushuncha tafakkurga bog'liq bo'lsa, konseptlar ongga bog'lanadi. Lingvistikada obraz va tasvirni qarama-qarshi qo'yish denotat va ma'no signifikati sifatida terminologik jihatdan belgilab qo'yilgan.

Lisoniy shaxsni bilish yo'nalishi lingvistikada lisoniy birliklar semantikasi yoki muloqot semantikasi sifatida o'zlashtirilgan. Bu yo'nalish o'zida tilda nomlash va tizimiy munosabatlar muammolarini, ma'nolar rivojini, ma'no va tushuncha, ma'no va fikr o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi.

Lisoniy shaxs uchun lisoniy relevant birlik insonning hayotiy tajribasi parchasi sifatida konsept hisoblanadi. Bu lavhalar agar individ uchun xos bo'lsa xotirada qayd qilinadi, kechinmalar bilan bog'liq bo'ladi.

Lisoniy shaxsni bilish yo'nalishi lisoniy ong muammolarida bizning e'tiborimizni konseptlashtiradi. Lisoniy ong bir tizimda bo'lib, uning qo'llaydigan har qanday unsuri, har qanday birligi bir-biri bilan bog'liq bo'ladi.

Lisoniy shaxsning muomalasi tavsifi – bu lisoniy shaxsni individum yoki tip sifatida belgilovchi verbal va noverbal vositalar jamlanmasidir. Inson haqida uning kommunikativ muomalasiga asoslanib so'zlaganda biz lisoniy shaxsning pragmalingvistik mezonlarini tushunamiz, xususan, muloqot o'z motiviga, maqsadiga, strategiyasi va uni amalga oshirish ususllariga ega bo'lgan faoliyat sifatida qaraladi.

Pragmalingvistika o'zida aniq muloqot sifatida qaraluvchi nutqqa mansub nazariyalar va qarashlar, lisoniy birliklar ma'nolari yaxlitligi, ma'nolar, shuningdek, muloqot vaziyatidan kelib chiquvchi xulosalar jamlanmasini ifodalaydi.

Lisoniy shaxsni muloqot nuqtai nazaridan tavsiflashda nutqiy aktlar nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy aktda illokutsiya nutqiy ta'sir tipi sifatida asosiy vaqt hisoblanadi. So'zlovchi maqsadi nutqiy ta'sirning u yoki bu tipini ajratishda ayniqsa, muhim belgi hisoblanadi. Amaliy jihatdan biz har qanday nutqiy harakatda, hatto nima haqdadir xabar qilganda yoki his-tuyg'ularni ifodalaganda ta'sirga duch kelamiz.

Kommunikativ strategiya lisoniy shaxs muomalasining muhim tavsifi hisoblanadi. Muloqot strategiyasi to'g'ridan to'g'ri kommunikantlarning maqsadlariga mos bo'ladi: agar maqsad global xarakterga ega bo'lsa, haqiqatan ham diskurs strategiyasi nazarda tutiladi, Agar ma'lum bir xususiy maqsadlarga diskursning ma'lum bir tipiga xos janr doirasida erishilishi haqida so'z yuritilsa, yo lokal strategiyalar yoki kommunikativ taktialar to'g'risida fikr yuritishga to'g'ri keladi.

Kommunikativ shaxsning yaxlit rejasi ma'lum davrda ma'lum etnosga oid bo'lgan muomalaning axloqiy va utilitar me'yorlaridan tashkil topadi. Umuminsoniy (axloqiy va utilitar) qadriyatlar mavjud bo'lib, taraqqiyotning ma'lum tipiga xos bo'ladi, ma'lum etnosni, shuningdek, etnos ichidagi mayda guruhlarni ham xarakterlab keladi.

Xullas, mayda guruhlar va shaxsning individual qimmatiga xos bo'lgan qiymatlar ajratiladi.

Muloqot ishtirokchilari maqsadlarini namoyon qiluvchi kommunikativ strategiyalar mazkur lingvomadaniyatda qabul qilingan muloqot dominantiga bog'liq bo'ladi. Muomala dominantalari so'z va ifodalar ma'nolarining baholovchi presuppozitsiyalariga, shuningdek, muloqot tamoyillariga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda tilshunoslarning mazkur masalaga qiziqishlarining kuchayib borayotganiga qaramay, lisoniy shaxs va kommunikativ shaxs tushunchalari haligacha o'z yechimini topmagan va boradagi munozaralar davom etmoqda. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, kommunikativ shaxs tushunchasi lisoniy shaxs tushunchasiga nisbatan keng hisoblanadi va u o'z tuzilishida bo'lgan noverbal vositalarni ham qamrab oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Lisoniy shaxs tushunchasini izohlang.
2. Kommunikativ jarayonda shaxs qanday o'rin tutadi?
3. Lisoniy shaxs, kommunikativ shaxs, so'zlovchi shaxs munosabati, ularning farqlovchi xususiyatlarini aytib bering.
4. Tilning voqelanishida inson omilini aniqlashga qanday yondashuvlarni bilasiz?

NUTQIY AKTNING NAZARIY MUAMMOLARI

Reja:

1. «Gap», «ifoda», «nutqiy akt» tushunchalarining o'zaro munosabati.
2. Nutqiy akt tushunchasi.
3. Nutqiy akt tuzilishi.
4. Nutqiy aktlar tasnifi.

Tayanch so'z va iboralar: *gap, ifoda, nutqiy akt, lokutsiya, illokutsiya, propozitsiya, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, performativ, illokutiv maqsad, illokutiv kuch.*

«Gap», «ifoda», «nutqiy akt» tushunchalarining o'zaro munosabati

Zamonaviy tilshunoslikda jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda inson nutqiy faoliyatini turli nuqtai nazardan tadqiq etuvchi bir qator yangi sohalar yuzaga kelmoqda va rivojlanmoqda. Odamlar o'rtasidagi kundalik muloqot jarayoni sinchiklab kuzatilsa, tilshunoslikda hali o'rganilishi lozim bo'lgan juda ko'plab muammolar mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, nutq subyektining shaxs sifatidagi bir olam ichki his-tuyg'ular muallifi ekanligi, aloqa-aralashuv jarayonida ana shu his-tuyg'ular so'zlovchining xususiy munosabati sifatida namoyon bo'lishi, bularni so'zlovchi nutqiga xos buyruq, iltimos, va'da, ogohlantirish, minnatdorlik kabi performativ va performativ bo'lmagan ifoda shaklida bayon qilinishi tilshunoslikda yana bir yangi yo'nalish mavjudligini ko'rsatadi. Bu nutqiy aktlar yo'nalishidir. Bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari «gap», «ifoda», «nutqiy akt» tushunchalarining o'zaro munosabatida ko'zga tashlanadi. Bu uch tushuncha o'zaro bog'liq. Agar gap matndan tashqarida mavjud bo'lgan tuzilma,

modelga ega bo'lsa, ifoda matn ichida joylashgan gapdir, nutqiy akt aniq maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat, so'zlovchining jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar asosidagi nutqiy faoliyati, ma'lum bir kommunikativ jarayon ichida joylashtirilgan ifodadir. Nutqiy aktlarning o'zgaruvchanlik imkoniyatlari, ular qo'llanadigan kommunikativ jarayon o'lchovlaridan kelib chiqib yangi ko'rinishlarning tug'ilishi ularni rivojlanib boruvchi til birliklariga aylantiradi. Agar kontekstga bog'liq bo'lgan ifodalar o'zgaruvchanligini o'rganish kommunikativ sintaksis predmeti hisoblansa, pragmatik mezonlarga bog'liq bo'lgan nutqiy aktlar o'zgarishi kompetensiyani tashkil qilib pragmalingvistika predmeti hisoblanadi. Nutqiy akt xususiyatlarini to'g'ri anglash uning tuzilishi, tasniflanishi va turli ko'rinishlari to'g'risida fikr yuritishni taqozo qiladi.

Nutqiy akt tushunchasi

«Nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan «boyitilishi», idrok etilishi natijasidir».[62] Nutqning qanday vaziyatda yuzaga chiqishi, nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat so'zlovchi fikrlarining ifodalanish shakliga, ya'ni eksplitsit yoki implitsit tarzda berilishiga ta'sir qiladi. So'zlovchi nutqiy faoliyati natijasida turli mazmundagi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi.Bunda so'zlovchi tomonidan tanlangan so'zlar o'z ma'nosidan tashqari boshqa, qo'shimcha mazmunlarni ham ifodalaydilar.

Nutqiy akt muammolariga oid ma'lumotlar V.Gumboldt, Sh.Balli, L.P.Yakubinskiy, M.M.Baxtin kabi olimlarning

[62] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, ЎМЭ. 2008. 72-73-бетлар.

lingvistik qarashlarida uchraydi. Nutqiy akt nazariyasining dastlabki masalalari Dj.Ostin, Dj.R.Syorl va boshqa olimlar ishlarida ko'rib chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, har qanday ifodada so'zlovchi ma'lum bir harakatni sodir etadi.

Dj.Ostin nutqiy aktlarni kommunikativ maqsadlariga ko'ra verdikativ, ekzersitivlar, bexabitivlar, komissiv, ekspozitiv atamalari bilan nomlab, har qaysisini alohida izohlaydi.[63] Dj.Ostin qarashlarining eng muhim jihatlaridan biri ifoda semantik strukturasidan «xususiy ma'no munosabati» tushunchasining ajratilishidir.

1955 yilda Garvard universitetida faylasuf Dj.Ostin tomonidan qilingan ma'ruza keyinchalik, 1962 yilda «So'z faoliyat sifatida» nomi bilan nashr qilindi. B u yerda u nutqiy aktlar nazariyasi taraqqiyoti uchun asos bo'lgan fikrlarini shakllantirdi. U quyidagilardan tashkil topgan:

1) til turli nutqiy harakatlar sodir bo'lishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi;

2) bu Dj.Ostin performativ deb atagan, ya'ni fikr ifodalash-harakatning asosiy vositasidir;

3) performativlar gapdan farqli ravishda haqiqiy ham yolg'on ham bo'lishi mumkin emas;

4) performativlar gap singari bizning harakatimizni tasvirlamaydi (Men yozaman), balki ularni talaffuz qilish bizning harakatimizni tasvirlaydi va ta'minlaydi (Men so'rayman);

5) o'z tarkibida birinchi shaxs birlik, hozirgi zamon, aniqlik maylidagi fe'llardan tashkil topgan performativlar nutqiy jarayon rivojlanib boruvchi kontekstlardagina namoyon bo'ladi.

Nutqiy akt tushunchasining asosiy mohiyati Dj.Syorl nomi bilan uzviy bog'liqdir. U nutqiy aktning illokutiv ko'rinishi xususida fikr yuritib nutqiy akt muammolari

---

[63]Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. — Вып. 17: Теория речевых актов. -М., 1986. -С.119.

qatorida ba'zi atamalar anglatgan tushunchalar mazmuniga to'xtaladi. Jumladan: **qoida, hukm (propozitsiya)** va **ma'no** (xususiy ma'no) atamalarining mohiyatiga izoh beradi.

Tadqiqotlarda nutqiy akt tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, **nutqiy akt** – bu istalgan ma'lum maqsadga erishish uchun tinglovchiga qaratilgan ma'lum maqsad bilan talaffuz qilinuvchi ifodadir, degan xulosaga kelish mumkin.

Nutqiy akt tuzilishi

Lingvistik pragmatikaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan nutqiy aktlar nazariyasi murakkab bilimlardan iborat bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega. Bu ta'limotda nutqiy faoliyatning alohida o'rganiluvchi kichik birligi nutqiy akt hisoblanadi. Bunda nutqiy akt subyekti hisoblangan so'zlovchi o'z fikrlarini odatga ko'ra adresatning o'zlashtirishiga mos holda ifodalaydi. So'zlovchi tomonidan ifodalangan fikr bir vaqtning o'zida ham nutqiy akt mahsuli, ham kommunikativ maqsadga erishish quroli sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqiy akt o'ziga xos tuzilish bosqichlari va mezonlariga ega. Nutqiy akt uch bosqichdan iborat: lokutiv, illokutiv va perlokutiv.

Lokutiv nutqiy akt – talaffuz akti, til birliklarining grammatik qoidalar bo'yicha tuzilishi, fikrning obyektiv mazmuni. Bunday nutqiy aktlar suhbatdosh tomonidan reaksiya talab qilmaydi.

Illokutiv nutqiy akt – lokutiv aktning ma'lum mo'ljal bilan yo'naltirilishi, kommunikativ maqsad ifodalanishi.

Perlokutiv akt – nutqning tinglovchi fikri va his-tuyg'ulariga hamda xulqiga ta'siri.

Propozitsiya(hukm)ning bir nutqiy vaziyatdagi turlicha talaffuzi xilma-xil mazmundagi illokutiv aktlarni yuzaga keltiradi.

Pragmatika ma'no tushunchasini matn yoki nutq tarkibidan xususiy ma'no ko'rinishlariga xos illokutiv akt sifatida ajratib olish asosida izohlaydi. So'zlovchi matnni yoki nutqni talaffuz qilish orqali nimanidir aytishni niyat qiladi. Ana shu niyat illokutiv aktni yuzaga keltiradi. Kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvning bosh lisoniy birligi sifatida illokutiv aktning ajratib olinishi bu nazariyaning muhim jihati hisoblanadi. Illokutiv akt so'zlovchining maqsadi demakdir.

Nutqiy aktlar nazariyasining muhim muammolaridan yana biri nutqiy aktlarni tasniflash masalasidir. Dj.Syorl illokutiv aktlarning o'zaro farqlovchi bir qancha lingvistik belgidan iborat mezonini ko'rsatib, illokutiv maqsad, yo'nalishning uyg'unlashuvi, bayoniy psixologik holatni alohida ajratadi. So'zlovchi kommunikativ niyatining amalga oshishi uchun bu uch tushuncha asos bo'ladi. Mavjud adabiyotlarda ko'rsatilishicha, nutqiy akt tasnifi jarayonida quyidagi lisoniy mezonlarni hisobga olish tasnifning to'g'ri yakunlanishi uchun asos bo'ladi. Jumladan, nutqiy akt mohiyatini aks ettiruvchi **illokutiv akt** bosh lingvistik mezon sanaladi. Shu ma'noda so'zlovchi va tinglovchining psixologik holatini e'tiborga olish tasnif mohiyatining to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, so'zlovchi va tinglovchi qiziqishlari ham muhim hisoblanadi.

Propozitsional mazmun bilan munosabat yo'nalishining o'zaro muvofiq yoki nomuvofiqligi ham nutqiy aktlar tasnifi uchun ma'lum qimmatga ega. Umuman, matn semantik tuzilishi tahlilida propozitsiya, yashirin ma'no komponentlari tagma'no, allyuziya kabi mazmun elementlarining hisobga olinishi nutqiy akt tasnifi uchun mezon bo'la oladi.

Perlokutiv nutqiy akt – illokutiv nutqiy akt tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natija yoki nutqiy harakatga bo'lgan reaksiyadir. Shuni yodda tutish lozimki, bir lokutiv nutqiy aktda bir necha illokutiv nutqiy akt bo'lishi mumkin: ***Siz ketasiz.*** (!), (?) – buyruq, so'roq yoki afsus.

Perlokutiv aktlarning mohiyati yoki harakatlanuvchi samarasi o'zgarishlarni yoki tinglovchining ijtimoiy mavqeyi, uning psixik holati, kayfiyati, xulqi va faoliyatini to'liq qamrab oladi. Perlokutiv aktlar shuningdek, tortishuv, rad qilish, norozilikni ifodalash bilan kimnidir ishontirish; qandaydir faktni xabar qilish bilan kimnidir qo'rqitish; iltimosni ifodalash bilan kimnidir ma'lum harakatga undash; va'da berish bilan kimnidir ishonishga majbur qilishni ham aks ettiradi. Perlokutsiya nutqiy harakat kategoriyasi sifatida so'zlovchi va tinglovchi mavjudligini talab etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nutqiy akt deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqiy akt qanday komponentlardan tuziladi?
3. Lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya atamalarini izohlang.
4. Nutqiy aktlarni tasniflashning qanday mezonlari bor?

ILLOKUTIV AKTLAR VA ULARNING TASNIFLANISHI

Reja:

1. Illokutiv akt haqida umumiy ma'lumot.
2. Illokutiv aktlar tasnifi.

Tayanch so'z va iboralar: *illokutsiya, illokutiv akt, reprezentativ, direktiv, komissiv, ekpressiv, deklarativ, adivsiv, bexabitiv.*

Pragmatikada, yuqorida ta'kidlaganimizdek, nutqiy aktga uch bosqichdan iborat faoliyat, ya'ni lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakatlari sifatida qaraladi . So'zlovchining o'zi yashab turgan olam, voqel'kni idrok qilishi hamda uni verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalash darajasi, ya'ni so'zlashi lokutsiya tushunchasida mujassamlashgan. Perlokutiv akt esa nutq qaratilgan shaxs fikriga ta'sir etib, yangi nutq vaziyatini yuzaga keltirish hisoblanadi. Nutqiy aktlar ichida muhim o'rin tutuvchi illokutiv akt so'zlovchining fikr ifodalash jarayonidagi kommunikativ maqsadidir. So'zlovchi maqsadining eksplitsit va implitsit shaklda namoyon bo'lishi illokutiv akt hisoblanadi. Umuman, illokutiv tushunchasi nutq tembri, imo-ishoralar xususiyatlari, ta'qiq, iltimos, shikoyat, savol, qasam, tahdid va boshqa ma'nolarga ega fe'llarni qo'llash bilan bog'liq turli komponentlarni o'zida mujassam etadi. Bu komponentlarning mohirona biriktirilishi, ularning kombinatsiyasiga, jumlaning illokutiv kuchi, so'zlovchining maqsadga erishish darajasiga bog'liqdir[64].

So'zlovchi nutqiy faoliyati natijasida turli mazmundagi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi. Bunda so'zlovchi tomonidan tanlangan so'zlar o'z ma'nosidan tashqari boshqa, qo'shimcha mazmunlarni ham ifodalaydilar.

---

[64] Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь. –Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008. –С.210.

Fe'lning qayd qilingan shakllari harakatga birday taalluqli bo'ladi, nutqiy aktlar esa bunday predikatlar bilan performativlik ifodalanishininng o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Dj.Syorl preformativ nutqiy aktlar tasnifining quyidagi besh tipini ko'rsatgan edi:

1) verdiktivlar yoki qandaydir qaror yoki ayblashni ifodalovchi nutqiy aktlar;
2) bixabitlar yoki kimningdir ijtimoiy muayyan reaksiyasi tuzilishini ifodalovchi nutqiy aktlar;
3) va'da;
4) ekzersitivlar yoki qandaydir huquqlarni ifodalovchi nutqiy aktlar;
5) ekspozitivlar yoki javob, rozilik yoki rad qiliishni ifodalovchi nutqiy aktlar.

Tilshunoslikda pragmatikaga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, nutqiy akt hodisasining mohiyati haqidagi turlicha qarashlar haligacha davom etib kelmoqda. Bu turfa xillik nutqiy aktlarni tasniflash va nomlashda ham ko'zga tashlanadi.

Dj.Ostin tasniflashda illokutiv fe'llarga asoslanib, nutqiy aktlarning besh xil ko'rinishini ajratgan edi: verdiktivlar (verdikt-hukm), ekzersitlar (ijro yoki hukmning mavjudligi), komissivlar (va'da), bexabitivlar (nutqiy etiket aktlari) va ekspozitivlar (tushuntirish, dalillash aktlari).[65]

Shunday qilib, illokutiv akt inson tomonidan nutq jarayonida nutq vositasida amalga oshiriladigan harakatdir. Illokutiv akt turi illokutiv kuch asosida aniqlanib, uni nutqiy harakatlar nazariyasining mualliflari nutqiy xatti-harakat fe'llari ma'nolarining asosida belgilashni taklif yetishadi va bu ularni bir necha konkret toifalarga guruhlash imkonini beradi. Bularning yeng ommabopi Dj.Syorl tomonidan taklif etilgan tasnif dunyoni so'zga yoki so'zni dunyoga va nutqiy sharoitga

---

[65] Остин Дж.Л. Слово как действие// Новое в зарубежной лингвистике.-Москва, 1986. -Вып. 17. –С.22-129.

moslashtirish hisobga olingan illokutiv nutqiy aktlarning birmuncha qat'iy tasnifi hisoblanadi.

Nutqiy harakatlar taksonomiyasida J.Syorl quyidagi bazisli kategoriyalarni alohida ajratadi:

a) reprezentativlar yoki xabarlar, ya'ni ishning haqiqiy ahvoli va uning bahosi haqidagi xabar: *Bugun dushanba*;

b) direktivlar ya'ni so'zlovchini ma'lum harakatga undash: *televizorni qo''ying*!;

v) komissivlar, ya'ni o'zi qabul qilgan majburiyat haqidagi xabar: *O'zimni yaxshi tutishga so'z beraman*;

g) samimiylik shartlari bilan belgilanadigan ruhiy holatni ifodalovchi ekspressivlar ya'ni qandaydir ishninng ahvoliga munosabat, muayyan ruhiy pozitsiya qarashning ifodalanishi: *Sizning oyog'ingizni bosib olganligim uchun kechiring*;

d) reallik va propozitsional mazmun orasida muvofiqlik o'rnatuvchi deklaratsiyalar, ya'ni qandaydir ishning yangi ahvolini o'rnatmoq kabi: *Sizning mehnat shartnomangiz (bu bilan) bekor qilinadi.*

Bundan tashqari Dj.Syorl lingvistik nuqtai nazaridan 12 muhim o'lchovni aniqladi, uning fikricha, bu nutqiy aktlarning u yoki bu sinfiga mansub ifodalar tamoyillarini asoslaydi. Keyinchalik, u D.Vanderveken bilan hamkorlikda nutqiy aktlarni farqlovchi yetti asosiy belgilarini ajratadi:

1) illokutiv maqsad;

2) illokutiv maqsadga erishish usuli (buyurish va so'rash);

3) illokutiv maqsad kuchayishi (so'rash va yalinish);

4) propozitsional tuzilish sharoiti (o'tmishga kinoya, kelajakka bashorat);

5) oldindan sharoit (xabarni so'rash adresatning uni bilishi haqida ishonchga olib keladi);

6) qizg'in sharoit (inson haqiqatan bilmasa, shunday holatda ma'lumot so'raydi);

7) qizg'inlikning kuchli bosqichi (va'da va qasam).[66]

---

[66] Сёрль Дж. Классификация иллокутивных актов//Новое в зарубежной лингвистике.- Москва, 1986.-Вып. 17. –С.170 – 194.

N.I.Formanovskaya esa nutqiy aktlarning yetti sinfini umumlashtiruvchi minimum o'rnatadi:

1) reprezentativlar – xabar;
2) komissivlar – majburiyat;
3) direktivlar – mayl, istak, hohish;
4) rogativlar – savollar;
5) deklarativlar –e'lon;
6) ekspressivlar – tuyg'u ifodalanishi;
7) kontaktivlar – nutqiy etiket ifodalanishi.[67]

Ko'rinadiki, pragmatikaning asosini tashkil qiluvchi nutqiy aktlar so'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq bo'lib, muloqot jarayonida ularning lisoniy birliklarni tanlab olishi, mazkur vositalarni nutqiy vaziyatga mos va xos holda qo'llashi hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri kabi masalalari qamrab oladi.

Matn bilan bog'liq masalalarni zamonaviy tilshunoslik talablari asosida tadqiq etgan tilshunoslardan biri M.Hakimov o'zining nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasida mavzu mohiyatini va u bilan bog'liq tomonlarni pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilishga intilgan. M.Hakimov nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnif qiladi:

1.Reprezentativ yoki xabar akti (asosan tasdiq akti sodir etiladi)

2.Undash aktlari (buyruq, taklif, iltimos, so'roq, maslahat)

3.Majburiyat yoki komissiv aktlari (va'da, qasamyod,tasdiq, xabar)

4.Ekspressiv aktlar (minnatdorchilik, tabrik, kechirim so'ramoq, his qilmoq, afsuslanmoq, salomlashmoq)

5. Deklarativ akt (deklarativ aktni sodir etish huquqi faqat ma'lum ijtimoiy mavqei faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxsga beriladi).[68]

---

[67] Формановская Н.И.Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика. Москва: Икар, 2007.-480 с.

U jahon tilshunosligida erishgan yutuqlarga tayangan holda tilshunoslikda hozirga qadar munozarali hisoblangan nutqiy akt nazariyasiga e'tiborni qaratib, matnda ochiq (eksplitsit) va yashirin (implitsit) fikr ifodalash usullarining o'ziga xos xususiyatlari, fikr ifodalashda tagma'noning roli kabi masalalarga oydinlik kiritgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Nutqiy akt tushunchasini izohlang.
2. Illokutiv aktning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarining farqlarini tushuntiring.
4. Nutqiy aktlar bilan bog'liq atamalarni izohlang.

---

[68] **Ҳакимов М.** Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. Филол. фан. докт. дисс. автореферати. Т., 2001. 49-бет.

NUTQIY AKTLAR TASNIFI



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Каримов И.А.** Юксак маънавият енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008. –176 б.
2. **Абдуазизов А.А.** О составных частях когнитивной лингвистике // Хорижий филология, Тошкент. 2007, 3-сон. –С.5-7.
3. Абдуллаева М., Абдурашидов М.,Абилов У. Фалсафа: қисқача изоҳли луғат. -Тошкент: «Шарқ». –Б.126.
4. **Аврорин В.А.** Проблемы изучения функиональной стороны языка. -Л.,1975. -С. 44.
5. **Азнаурова Э.С.** Прагматика художественного слова. –Ташкент: Фан, 1988.
6. **Алефиренко Н.Ф.** Дискурсивно-когнитивные истоки семантики единиц вторичного звукообозначения. // Русский язык: исторические судьбы и современность.Материалы международного конгресса. -М., 2001. -С. 83.
7. **Аликулов З.** Социумлар нутқининг социал табақаланиши ҳақида // Тил тараккиётининг деривацион конуниятлари / Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. - Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2009. -Б.77.
8. **Апресян Ю.Д.** Прагматическая информация для толкового словаря. –Москва, 1995. -С. 199-218.
9. **Арискина О. Л., Дрянгина Е. А. Языковая** и коммуникативная личность: различные подходы к исследованию // Вестник Челябинского государственного университета. Вып. 58 . Челябинск. 2011. - С. 15–18.
10. **Арутюнова Н. Д.** Типы языковых значений. Оценка. Событие.Факт. - М., Наука, 1988.- С.198-200.
11. **Арутюнова Н.Д.** Фактор адресата // Известия АН. Серия "Литература и язык".,- Т. №4. 1981. - С. 356-367.
12. **Арутюнова Н.Д.** Язык и мир человека. - М.: Языки русской культуры, 1999. - 896 с.
13. **Ашурова Д.У.** Производное слово в свете коммуникативной теорий языка. – Ташкент: Фан, 1991. -100.
14. **Бабенко Н. С.** О лингвистическом смысле разграничения текстов на жанры //Лексика и стиль. – Тверь:Изд-во Твер. ун-та, 1993. -С. 6-9.
15. **Бахтин М.М.** Эстетика словесного творчества .- М., 1979.С.121.
16. **Бахтин М.М.** Вопросы литературы и эстетики.- М., 1975.С.403.
17. **Выготский, Л.С.** Мышление и речь: Психологические исследования / Л.С. Выготский. – М. : Лабиринт, 1996. – 415 с.
18. **Гак В.Г.** Прагматика, узус и грамматика речи // ИЯШ. -1982.-№5. -С.11-17.
19. **Галстян С. С.** Языковая личность – основа телевизионной коммуникации. URL: http://vestnik.ipk.ru/index.php?id=1544.

20. **Грайс Г.П.** Логика и речевое общение / Г.П. Грайс; пер. с англ. В.В. Туровского // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 217–237.
21. **Гурочкина А.Г.** Понятие дискурса в современном языкознании // Номинация и дискурс. -Рязань, 1999. -С.13
22. **Дейк Т.А.** ван, Кинч В. Стратегии понимания связного текста // НЗЛ. Вып. 23.-М.: 1988. -С. 178.
23. **Дейк Т.А.** ван. Язык, познание, коммуникация. - М.: Прогресс, 1989. -С. 372.
24. **Дымарский М. Я.** Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX—XX вв.). — СПб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1999.-С.42.
25. **Дьячкова И.Г.** Похвала и порицание как речевые жанры // Вестник Омского университета. - 1998. - №3. - С. 55-58.
26. **Винокур Т.Г.** Закономерности стилистического использования языковых единиц. - М.: Наука, 1980. –238 с.
27. **Вольф Е. М.** Функциональная семантика оценки. Изд. 2-е, доп. - М.: Едиториал УРСС, 2002. – С.23.
28. **Зеленщиков А.В.** Пропозиция и модальность. –СПб.: Изд-во С. Петербургск. у-та, 1997. – 141 с.
29. **Золотова Г.А.** Говорящое лицо и структура текста // Язык – система. Язык – текст. Язык – способность. – Москва: ИРЯ РАН, 1995. –С.117 -123.
30. **Ирискулов М.** Тилшуносликка кириш.-Тошкент, "Ўқитувчи", 1992. -Б.159-160.
31. **Иссерс О.С.** Коммуникативные стратегии и тактики русской речи: Автореф. дис. … д-ра филол. наук. -Екатеринбург, 1999. -С. 16.
32. **Йўлдошев Б.** Ўзбек тилида матн компонентларининг семантик ва прагматик муносабатлари ҳақида // Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарканд: 2007. –Б.11-12.
33. **Йўлдошев М.** Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. - 159 б.
34. **Карасик В.И.** Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
35. **Карасик В.И.** Этнокультурные типы институционального дискурса // Этнокультурная специфика речевой деятельности: Сб. обзоров. - М.: ИНИОН РАН, 2000. - С.37-64.
36. **Караулов Ю. Н.** Русский язык и языковая личность. -М.: Наука, 1987. 263 с.
37. **Кенжебалина Г. Н.** Лингвопрагматика : учебное пособие для студентов и магистрантов филологических специальностей. – Павлодар : Кереку, 2012. – 121 с.
38. **Колшанский Г.В.** Лингвокоммуникативные аспекты речевого общения // Методическая мозаика. 2006, № 4.-С.27-32.

39. **Конецкая, В. П.** Социологии коммуникации. URL : http://www.i
40. **Лутфуллаева Д., Давлатова Р.** Ўзбек мулоқот матнининг дейктик бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 6-сон, 32-36-бетлар.
41. **Макаров М. Л.** Основы теории дискурса. – М., 2003.-С.135.
42. **Махмудов Н., Нурмонов А.** Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). Т.: Ўқитувчи. 1995. -230.
43. **Махмудов Н.** Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент,1986. №6, -Б.29.
44. **Михальская А. К.** Педагогическая риторика: история и теория. – М., 1998. –С.32.
45. **Менглиев Б.Р.** Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар, ДДА, Тошкент: 2002. – 46 б.
46. **Мирзаев И.К.** Тил ва нутқ ходисаларини ўзаро фарқлаш лозимлиги ҳақида // СамДУ илмий ахборотномаси, 2003, № 2. - 3-5-б.
47. **Мўминов С.** Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ...диссертацияси. –Тошкент. 2001. -235б.
48. **Назаров К.** Билиш фалсафаси. –Тошкент: Университет, 2005. -347 б.
49. **Наумов, В.В.** Лингвистическая идентификация личности. – М., 2006. – 240 с.
50. **Неъматов Ҳ.** Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988, № 6. - 38-43-б.
51. **Неъматов Ҳ., Бозоров О.** Тил ва нутқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.
52. **Нурмонов А.** Нутқий фаолият ва сўзловчи шахс // Раҳматулла Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд. 2008. –Б.10-13.
53. **Нурмонов А.** Шакл ва мазмун муносабати – лингвистик тадқиқотлар асоси // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент,2010 №4, -Б.29.
54. **Нурмонов А.** Танланган асарлар. III жилд. –Тошкент, 2012. 245-бет.
55. **Нурмонов А., Ҳакимов М.** Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент.2001. -№4. –Б.54-58.
56. **Нурмонов А.** Лингвистик таълимотнинг янги босқичи//Ўзбек тили ва адабиёти.№6.-Тошкент, 2008.-Б.53.
57. **Олешков М. Ю.** Пропозициональная синхронизация в дидактическом дискурсе // Известия УрГПУ. Лингвистика. Выпуск 15. - Екатеринбург. – 2005с. - С. 201-208.
58. **Остин Дж. Л.** Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. — Вып. 17: Теория речевых актов. -М., 1986. –С.119.
59. **Ostman J., Virtanen T.** Discourse analysis // Handbook of Pragmatics: Manual. - Amsterdam, Philadephia, 1995. -P. 240.
60. **Раҳимов У.** Пресуппозицияни ўрганишнинг назарий асослари//Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. – Андижон, 2012. 259-бет.

61. **Карасик В. И.** Языковой круг : личность, концепты, дискурс. Волгоград : Перемена, 2002. 477 с.
62. **Конецкая В. П.** Социологии коммуникации. URL : http://www.i-ru/biblio/archive.
63. **Ромашко С.А.** Язык как деятельность и лингвистическая прагматика // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. –М., 1984.-С. 137-142.
64. **Сафаров Ш.** Когнитив тилшунослик. Жиззах: "Сангзор" нашриёти, 2007.-Б.6.
65. **Сафаров Ш.** Прагмалингвистика. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 286 б.
66. **Сафаров Ш., Тоирова Г.** Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. -Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2007.-Б.19.
67. **Сафаров Ш.С.** Этносоциопрагматика речевого общения (принципы сопоставительно-типологического описания): Автореф. дисс. докт. филол. наук. –Ленинград:ЛГУ, 1991. -32 с.
68. **Сиротинина О. Б.** Языковая личностьи факторы, влияющие на ее становление //Термин и слово: межвуз. сб., посвящ. 80-летию проф. Б. Н. Головина. Н. Новгород, 1997. -С. 7–12.
69. **Сёрл Дж.Р.** Что такое речевой акт? // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. - М.: Прогресс, 1986. - С. 318.
70. **Сёрль Дж., Вандервекен Д.** Основные понятия исчисления речевых актов // НЗЛ. Вып 18. - М: Прогресс, 1986. - С. 172.
71. **Степанов Ю.С.** В поисках прагматики (Проблема субъекта) // «Литература и язык». - 1981. - № 4.-С. 325-332.
72. **Стернин И.А.** Фактор адресата в речевом воздействии // Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. - 2004а. - № 1. - С. 171-177.
73. **Стивенсон Ч.** Некоторые прагматические аспекты значения // НЗЛ. Вып. 16.-М.: Прогресс, 1985.-С. 129-154.
74. **Столнейкер Р. С.** Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. -Вып. 16: Лингвистическая прагматика. -М., 1985. -С. 419-438.
75. **Собиров А.** Тушунча майдонида сўзнинг ўрни // Тил ва адабиёт таълими, 2001, № 6. - 63-68-б.
76. **Формановская Н. И.** Речевое общение: коммуникативно -прагматический подход. – М.:2002. –С.42.
77. **Формановская Н.И.** Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика. Москва: Икар, 2007.-480 с.
78. **Қўнғуров Р.** Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 112 б.
79. **Ғозиев Э.** Муомала психологияси. –Тошкент: Университет, 2001. 55 -бет.
80. **Хайруллаев Х.** Тил бирликларининг погонали муносабати. –Тошкент: Фан, 2008. -100 б.
81. **Худойберганова Д.** Матн яратилишининг антропоцентрик талқини // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 6-сон, 92-95-бетлар.

82. **Шатуновский И. Б.** Семантика предложения и нереферентные слова. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. -С. 21.
83. **Шмелева Т.В.** Модель речевого жанра // Жанры речи. Саратов: Колледж, 1997. -С.88-98.
84. **Ҳакимов М.** Ўзбек *тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фан.* докт. дисс. авторефераті. Т., 2001, 49-бет.
85. **Ҳакимов М.** Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДД.-Т.,2001.
86. **Юлдашев М.** Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. док. дисс... -Тошкент, 2008.-Б.244.
87. **Якобсон Р.** Избранные работы.- М.: Прогресс, 1985. С.34.
88. **Гак В.Г.** Прагматика, узус и грамматика речи // ИЯШ. –М.:1982.-№5.- С.11-17.

Луғатлар:

89. **Абдуллаева М., Абдурашидов М., Абилов У.** Фалсафа қисқача изоҳли луғат.-Тошкент:"Шарқ". –Б.126.
90. **Абушенко В.Л.** Оценка // Всемирная энциклопедия. Философия. -М. 2001. С.755.
91. **Ахманова О.С.** Словарь лингвистических терминов, М., 1969. – 608 с.
92. Большая Российская энциклопедия. –М., 2000. –С. 300.
93. **Кубрякова Е.С.** и др. Краткий словарь когнитивных терминов - М.: изд-во МГУ, 1996. -С.187.
94. Логический словарь / под ред. А.А. Ивина, В.Н. Переверзева, В.В. Петрова. -М.: ДЕФОРТ, 1994. - С. 173 - 174.
95. **Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р.** Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. - 232 б.
96. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 216 б.
97. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
98. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 382 б.
99. **Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р.** Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. - Тошкент: «Ўқитувчи», 1980. - 232 б.
100. Психологический словарь / под ред. В.В. Давыдова, А.В. Запорожца, Б.Ф.
101. **Стариченок В.Д.** Большой *лингвистический словарь.* – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008. С. 807.
102. Узбекско-русский словарь, М.: Гос. изд-во иностранных и национальных словарей, главный редактор: А.К.Боровков, 1959.-840 с.
103. Фалсафа: комусий луғат. –Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004. –Б. 341.
104. Философский энциклопедический словарь. -Москва: Советская энциклопедия, 1983. -657с.

105. **Ходжиев А.П., Ким С.Л.** Узбекско-русский синонимический словарь. - Ташкент: Фан, 1990. – 112 с.
106. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, икки томлик, 1-том, М.: 1981. – 632 б.
107. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, икки томлик, 2-том, М.: 1981. -715 б.
108. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
109. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 2-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
110. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 3-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
111. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 4-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
112. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 5-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
113. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» нашриёти, 2002. – 168 б.
114. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати.-Тошкент: Ўқитувчи,1985.-Б.110.

GLOSSARIY

Advisiv – nutqiy akt (maslahat, tavsiya) turi. Bunday akt turlarida adresentning kommunikativ maqsadi adresatga biror bir muammoni hal qilishga yordam, u tushib qolgan noqulay vaziyatdan chiqishi uchun aniq taklif, pand-nasihat, yo'l-yo'riq va tavsiya berishdan iborat bo'ladi.

Assertiv – nutqiy akt turi. Assertiv ma'lum va ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun xizmat qiladi va psixologik holatlarni ifodalamaydi. V.V.Bogdanov tasnifida bu ko'rinishda affirmativ (q.) va konstativ (q.) lar o'zaro birlashadi. Assertiv undash xarakterida bo'lmagan nutqiy aktlar doirasida ekspressiv (q.) bilan uyg'unlashadi.

Assertsiya - (tasdiq) gapning semantik tuzilishidagi shunday komponentki, unda ma'lum faktlarni inkor qilish jarayonida asl ma'noga zidlik yuzaga keladi. Masalan, haqiqiy tasdiq ifodalovchi *narxi oshdi* gapi *narxi oshmadi* yolg'on mazmundagi gapni inkor qilish asosida yuzaga kelgan. Assertsiya presuppozitsiyaga (q.) qarama –qarshi qo'yilganda gapning ma'no ifodalovchi komponenti inkor qilishda konstanta sifatida qoladi. Taqqoslang: *So'zga chiquvchi narx oshganligi uchun afsuslandi / afsuslanmadi.* Ifodada presuppozitsiya sifatida *narxi oshdi* lavhasining ma'nosi yaxlit chiqadi.U ifoda doirasida inkor mavjudligi yoki mavjud emasligiga daxldor emas.

Affirmativ – nutqiy akt turi. V.V.Bogdanov tasnifida noma'lum ma'lumotni yetkazishda ijtimoiy bo'lmagan, psixologik holatni ifodalamaydigan belgilar qayd etiladi. Ziddiyatli – konstativga (q.) yaqin. Affirmativ va konstativ assertiv (q.) doirasida o'zaro tutashadi va birlashadi.

Bexabitiv – (ikki o'zakning – behave «o'zini tutmoq» va habit «odat» - birikishidan yasalgan) nutqiy akt. Jamoada o'zini tutish, biror kishi xatti-harakatiga munosabat bildirish ma'nolarini ifodalaydi. Dj.Ostin nazariyasiga ko'ra kishilarning shaxsiy munosabatlari va ularning xulqi, tabriklari, hamdardliklari, uzr so'rashlarini aks ettiruvchi nutqiy akt ko'rinishi.

Verbal kommunikatsiya – aloqa jarayonida tovush, shuningdek, grafik belgilar ko'rinishiidagi lisoniy (verbal) belgilar qo'llaniladi, verbal muloqot; lisoniy kommunikatsiya; lisoniy muloqot.

Verbal muloqot – verbal kommunikatsiya; lisoniy muloqot.

Verdiktiv – nutqiy akt. Sud, hakam kabilar tomonidan hukm chiqarish. Dj.Ostinning nutqiy aktlar tasnifida berilishicha, hakam yoki sudyalarning aybdorlarga hukm e'lon qilishiga xizmat qiladigan nutqiy akt; ijobiy yoki salbiy baho va shu kabilar (aybiash, tanbeh, tanqid, maqtov va shu kabilar).

Verdikt (latincha vere dictum – rost aytilgan) jinoyat tahlili jarayonida maslahatchilar hay'atining o'z oldilariga qo'yilgan masala, ya'ni aybianuvchining gunohkor ekanligini tasdiqlovchi qarori.

Sudlanuvchining aybdor ekanligini isbotlashga qaratilgan har bir harakatda uch asosiy masala qo'yiladi:

Harakatning o'rinli ekanligi isbotlab berilganmi;

- Bu harakatni sudlanuvchi tomonidan amalga oshirilganligi isbotlab berilganmi;
- Bu harakatni amalga oshirishda sudlanuvchi rostdan ham aybdormi.

Agar yuqorida qayd etilgan bu uch asosiy masalaga maslahatchilarning asosiy qismi bir xilda ovoz bergan bo'lsalar, ayblovchi verdikt qabul qilingan hisoblanadi;

O'zini oqlash verdikti qabul qilinishi uchun qo'yilgan uch asosiy savolning to'g'ri kelganiga berilgan rad javobini kamida olti maslahatchi yoqlab ovoz berishi lozim;

Agar ovozlar miqdori teng kelib qolsa, ayblanuvchiga ma'qul keluvchi javob tanlanadi. «Aybdor» verdiktini e'lon qilishda sud maslahatchilari ayblov fikrini o'zgartirib, sudlanuvchiga ma'qul keluvchi qarorga kelishlari mumkin;

Har bir savolga berilgan javob tasdiqlovchi «ha» yoki rad qiluvchi «yo'q» tarzida bo'lishi, izohlovchi so'zlar (ha, aybdor, yo'q, aybdor emas) bilan kelishi kerak. Savollarga berilgan javoblar maslahatchilar boshlig'i tomonidan savolnomaga har bir savolga javob qaytarilgandan so'ng kiritiladi.

Volyuntativ -- so'zlovchining subyekt ish harakatiga munosabati.

Geshtalt – inson tomonidan obyektiv voqelikni idrok etish va talqin qilish natijasida hosil bo'lgan olamning o'ziga xos modeli hisoblanuvchi kognitiv konseptual struktura; tasvirlanayotgan obyekt yoki hodisaning dinamik va statik aspektlarini birlashtiradigan yaxlit obraz.

Deskriptsiya – (lot. tavsif) predmetning atov yoki turdosh nomining o'rnini bosuvchi til tuzilmasi.

Deyksis – (yunoncha -ko'rsatish, ishora) til tizimi va kontekst o'rtasidagi bog'liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishi; lison vositasida voqelikka ishora, ko'rsatish.

Deklaratsiya – nutqiy akt turi. Dj. Syorl uning quyidagi xususiyatlarini qayd etadi: 1) illokutiv maqsad – so'zlovchining belgilangan obyekt mavqeyini o'zgartirishga qaratilgan harakati; 2) «So'z – voqelik» va «voqelik – so'z» tushunchalarini bir vaqtning o'zida moslashtirishga qaratilgan harakat; 3) samimiylik sharoiti – mavjud emas.

Dialog – suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi. Dialog - lisoniy muloqotning dastlabki va asosiy shaklidir. Qoidaga ko'ra, kundalik hayotda har bir kommunikativ hodisa asosida dialogiklik (interaktivlik) yotadi.

Direktiv – nutqiy akt turi. Dj. R. Syorl nazariyasida: 1).illokutiv maqsad – so'zlovchi tomonidan eshituvchini ma'lum bir harakatni amalga oshirishga

undash maqsadida qilingan nutq harakati; 2) voqelik – so'z muvofiqligi; 3) samimiylik sharoiti – istak (yoki ehtiyoj); 4) propozitsional mazmun – *tinglovchi – S, kelgusida ayrim harakatlarni sodir etish – D*; 5) Formula !W (*S D ni* harakatga keltiradi). Simvol ! direktivning illokutiv maqsadini anglatadi.

Illokutiv – jumla-fikrning maqsadli yo'naltirilganligi. Illokutsiya nutq *intensivligi, tembri, mimika va imo-ishoralar xususiyatlari, ta'qiq, iltimos,* shikoyat, savol, qasam, tahdid va boshqa ma'nolarga ega fe'llarni qo'llash bilan bog'liq turli komponentlarni o'zida mujassam etadi. Bu komponentlarning *mohirona biriktirilishi, ularning kombinasiyasiga, jumlaning illokutiv kuchi,* so'zlovchining maqsadga erishish darajasiga bog'liqdir.

Illokutiv akt – qaysidir ifodani talaffuz qilish jarayonidagi kommunikativ *maqsad, niyat. So'zlovchi nutqiga xos niyatning ochiq va yashirin shakli.*

Illokutiv kogerentlik – oldingi nutqiy aktning keyingi nutqiy aktning illokutiv bog'liqligi.

Illokutiv kuch – so'zlovchining verbal va noverbal imkoniyati.

Innovatsiya – tildagi yangi hodisa va yangi shakllanishlar.

Intensiya (lot. intention «intilish, harakat qilish») – nutqiy harakatning maqsadi, so'zlovchining niyati, istagi. Nutqiy intensiyaning amalga oshish darajasi (nutqiy harakatni amalga oshirish imkoniyati) tilga egalik (tilni o'zlashtirish) darajasi, ekspressiv – stilistik va tilning obrazli imkoniyatlari hamda noverbal yordamchi vositalaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Interpretatsiya –(lot. o'zgartirish, almashtirish) ma'noviy qayta ishlash, asosiy mazmunga kirish gaplar va oborotlar vositasida modal baholash ma'nosini kiritish.

Kogeziya – (lot. bog'liq) yuzaki shakliy sathda namoyon bo'ladigan matn bog'liqligi. Kogeziya grammatik va leksik vositalarni, har xil takrorlarni, anafora va hakozolarni o'z ichiga oladi.

Kogerentlik – (lot. aloqa, bog'liqlik) mazmuniy ma'noviy sathda namoyon bo'ladigan matn bog'liqligi.

Kognitsiya – subyektning bilish, idrok qilish, ta'riflash qobiliyati.

Komissiv – (ing.commitment-«majburiyat») nutqiy akt. Bu nutqiy akt va'da berish va boshqa turdagi majburiyat ma'nolarini [illegible] ifodalaydi.

Kommunikativ maqsad (intensiya) – nutqiy harakat maqsadi, *so'zlovchining niyati. Kommunikativ maqsadning amalga oshish darajasi* (nutqni amalga oshirish imkoniyati) so'zlovchining tilni bilish darajasi, tilning ekspresssiv-stilistik va obrazli imkoniyatlaridan hamda noverbal yordamchi *vositalardan foydalanish mahoratiga bog'liq.*

Kontekst – mazmun jihatidan tugallangan, o'z tarkibidagi so'z va iboralarning ma'nolarini belgilashga imkon beradigan nutq parchasi. Kontekst *nutq vaziyatini ham qamrab oladi.*

Konsept – lisoniy birliklar (masalan, so'z, gap, matn kabilar) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayoni, hodisasi, tafakkur birligi bo'lib, bu inson bilish jarayonining natijasidir.

Konseptosfera – konsept uchun talab qilinuvchi belgilarning funksiyalashish maydoni.

Lokutiv nutqiy akt – talaffuz akti, barcha lisoniy qoidalaar asosida talaffuz qilish va artikulyasiya yoki hyech qanday maqsadli qurilmasiz oddiy gapirish.

Makrokonsept – lisoniy birliklarni qamrab olish doirasi keng qamrovli bo'lgan konsept.

Matn – o'zida kontekst va nutq vaziyatini ifoda etgan mazmun va shakl birligi.

Mental akt - so'zlovchi nazarda tutgan kommunikativ niyat bilan tinglovchi tasavvurining o'zaro mosligi, ya'ni verbal ifoda vositasi bilan tinglovchi tasavvuriga kira olish.

Modifikatsiya – tadqiq qilinayotgan hodisa tuzilishini aniqlashtirish.

Nutqiy akt – ma'lum maqsad bilan talaffuz qilinuvchi ifoda.

Nutqiy qobiliyat – til vositasida fikrning hosil bo'lishi va shakllanish usullarini bilish, bu usullarni o'zlashtirish jarayonida hamda turli kommunikativ aktlarda o'rinli qo'llash mahorati.

Nutqiy (kommunikativ) strategiya – so'zlovchi yoki yozuvchining bosqichma-bosqichli nutqiy harakati tizimi, kommunikativ maqsadga erishish uchun muloqot jarayonida ifoda va muomala usullarini ongli ravishda tanlashning umumiy dasturi.

Nutqiy (kommunikativ) taktika – nutqiy strategiya hosil bo'lish jarayonidagi aniq nutqiy yo'l (qadam, burilish, davr); nutqiy strategiyalarni u yoki bu bosqichda amalga oshirishga muvofiq keluvchi va shu bosqichning xususiy kommunikativ vazifalarini yechishga yo'naltirilgan nutqiy harakat (nutqiy akt yoki bir necha nutqiy aktning jamlanmasi).

Nutq situatsiyasi – nutqiy akt ishtirokchilariga u yoki bu nutqiy usul va til vositalarini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi nutqiy jarayon. Nutqiy vaziyat xarakteriga quyidagi lisoniy va ekstralingvistik faktorlar ta'sir ko'rsatadi: nutqiy vaziyat ishtirokchilari, ularning yoshi va ijtimoiy mavqyeyi hamda shaxsiy munosabati, nutq predmeti, nutqiy vaziyat ifodalanishi (joy, vaqt, sharoit), nutqiy janr (ma'ruza, dars, suhbat, tavba, intim suhbat), muloqot maqsadi va boshqalar.

Obrazli assotsiativ qatlam – u yoki bu til sohiblarining predmet haqidagi hissiy tasavvurlarini ifodalovchi qatlam.

Perlokutiv akt – tinglovchi fikriga nutqiy ta'sir etib, yangi nutq vaziyatini yuzaga keltirish.

Perseptor – bayon qilingan propozitsiya obyekti.

Pragmatik mazmun – fikr ifodalashda ko'chma ma'nolar, ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hokazolarni umumlashtirib, konfigurasion yoki semantik-pragmatik rejaga kiradi hamda semantik referensiyani, predikativ (kesimlik) – modal tavsiflarini, shuningdek, "dalillar bilan isbotlangan dastur" – matnning illokutiv tavsifini, boshqacha qilib aytganda, uning kommunikativ mazmunini o'zida aks ettiradi.

Pragmatik vazifa – turli kommunikativ maqsadlarga erishish uchun muloqot jarayonida lisoniy birliklarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini namoyon qilishi.

Pragmatik samara – so'zlashuvchining o'z nutqida munosabat ifodalovchi baholash so'zlaridan foydalanib, eshituvchiga ta'sir o'tkazishini, uning kommunikativ faoliyati natijasi.

Propozisitsiya (diktal ma'no) – sintaktik birliklar vositasida ifodalangan obyektiv mazmun, jumladagi asosiy hukm.

Protoverbal mazmun – predmetlar, hodisalar va vaziyatlarni o'z-o'zicha emas, balki ko'plab aloqa va munosabatlar bilan bog'langandek aks ettiruvchi yaxlit kognitiv hosila.

Relevant - til birliklarini farqlovchi belgi. U bir xil shakldagi so'zlarni farqlovchi urg'u sifatida namoyon bo'ladi.

Reprezentativ akt – xabar nutqiy akti.

Reprezentatsiya – til omillarining eng yorqin namoyoni, ahamiyati, ishonchliligi, isbotiyligi.

Referensial akt – obyektiv olamdagi narsa va predmet, voqea-hodisalarning nutqiy nomlanishi va ularning o'zaro muvofiqligi.

Semantik innovasiya – taraqqiyot jarayonida til birliklari ma'nosida o'zgarishlar sodir bo'lishi, yangi ma'no kasb etishi.

Signifikativ qatlam – tushuncha, obrazlarning inson ongida aks etishini ifodalovchi birliklar qatlami.

Sotsiopragmatika – nutqni ham lisoniy ham ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etish natijasida yuzaga kelgan sotsiolingvistikaning tarmog'i.

Superkategorial qatlam- konseptosferaga ishora qiluvchi mavhum qatlam.

Superkonsept – emotsional-ekspressivlik, obrazlilik kuchli darajada aks etgan konsept.

Superlativ - tashviqot, targ'ibot va reklamaning eng yuqori bahoni ifodalashda qo'llanuvchi vositasi.

Ssenariy (skript) – zamon va makonda alohida epizodlar va bosqichlar, elementlarning izchilligi sifatida tavsiflanadi: harakat, rivojlanish alomatlariga ega stereotip epizodlar (mushtlashuv, ekskursiya va shu kabilar).

Freym – tarkibiy qismlar yaxlitligidagi ko'p komponentli konsept, keng ko'lamli tasavvur, predmet yoki hodisa haqidagi standart bilimlarning ma'lum majmuasi.

Ekzersitiv – (lat. exercitation – «ijro etmoq», «bajarmoq») nutqiy akt. Bu nutqiy akt buyruq berish, majbur qilish, maslahat berish, ogohlantirish ma'nolarini ifodalaydi .

Ekstensional – so'zning predmet, hodisa va obyektivlikka mos kelishi.

Ekspozitiv – (ing. yexposition - «izoh, tavsif, tushuntirish») nutqiy akt. Muloqot jarayonida so'zlovchining o'z fikrini izohlashi, tasdiqlashi va tushuntirishi.

Ekspriyenser yoki agens – subyekt.

MUNDARIJA

Kirish 3
Pragmalingvistika fani, uning obyekti va predmeti 5
Til tizimi va nutqiy faoliyat 17
Diskurs. Nutqiy muloqot tizimi birliklari 27
Diskurs va baholash faoliyati 41
Diskurs strukturasi 46
Kommunikativ maqsad va baho 53
Kommunikativ strategiya va taktika 59
Nutq vaziyati 65
Nutqda shaxs omili 72
Nutqiy aktning nazariy muammolari 80
Illokutiv aktlar va ularning tasniflanishi 86
Foydalanilgan adabiyotlar 92
Glossariy 98

Pardayev Zafar

PRAGMATIK LINGVISTIKA
(O'quv-uslubiy qo'llanma)

Muharrir E.Musurmonov
Tex. muharrir Q.Berdiyev

5 fevral 2013 yilda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. "Times New Roman" garniturasi.
Ofset qog'ozi. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 48

SamDChTI nashr-matbaa markazida chop etildi.
Manzil: Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93